

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODI VA MAMLAKATSHUNOSLIK
FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**XITOVNING AGRAR SEKTORIDA IQTISODIY ISLOXOTLAR
XUSUSIYATLARI**

Bajardi:5342500-“Xitoyshunoslik”

ta’lim yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Ja’farov Murod _____

Ilmiy raxbar: prof.Soliev A.S.

Toshkent 2014

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. XXR QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY BOSQICHLARI.....	6
1.1. XXRda oilaviy pudrat qishloqdagi iqtisodiy islohotining asosi.....	6
1.2.XX asrning yakunidagi agrar kompleksini isloh qilishning natijalari	25
II BOB. XITOIY AGRAR SEKTORINING RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI.....	36
2.1. Xitoy agrar sektori rivojining zamonaviy holati	36
2.2. Xitoy agrar sektori rivojlanishining muammo va istiqbollari.....	48
2.3. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlarning natijalari	60
XULOSA.....	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	71

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. O'ttiz yillik islohotlarni amalga oshirish jarayonida XXR iqtisodida katta o'zgarishlar amalga oshdi. Bu o'zgarishlar bilan bir qatorda mamlakat bo'yicha umuman olganda, qishloq xo'jaligi vaziyatida yaxshilanishning ijobiy tendensiyasi kuzatilmoqda. Iqtisodiy o'sishni yanada jadallashtirish maqsadida Xitoy kommunistik partiyasi davlat tizimini qayta tashkillashtirishni davom ettirmoqchi. Bunga bog'liq ravishda qishloq tumanlarining miqyosi va qishloq aholisi sonini ustuvorligi (70%dan ziyod) hisobga olgan holda Xitoy iqtisodi uchun eng dolzarb masala qishloq xo'jaligini hamma tomonlama rivojlantirish va modernizatsiyalashdir. Bu kontekstda shuni ta'kidlashimiz lozimki, Xitoyda umummilliy xarakterga ega bo'lgan har qanday ijtimoiy, iqtisodiy muammoni qishloqni hisobga olmagan holda amalga oshirish mumkin emas.

Moliyaviy iqtisodiy inqiroz qishloq xo'jalik mahsulotiga narxlarni haddan ziyod tebranishini vujudga keltirib, oziq-ovqat muammosini keskinlashtirdi, bu muammoni muvaffaqiyatli yechilishi ko'p jihatdan turli davlatlarning agrosanoat kompleksini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi va modernizatsiyalashning muvaffaqiyati bilan belgilanadi.

Butun Jahon Savdo Tashkilotining bir qator holatlarining qoidalariga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlar agrar sohasida proteksionizmni kuchayishi bir tomondan qishloq xo'jalikdagi ishlab chiqaruvchilarni ishonchli himoyasini ta'minlab berdi, boshqa tomondan esa, jahon oziq-ovqat bozorida salbiy hodisalarni ko'payishiga olib keldi.

Shu bilan birga, bir qator rivojlanayotgan davlatlar va avvalambor, Xitoy agrar sohada davlat rolini kuchaytirishni agrar siyosatining eng istiqbolli yo'nalishi deb hisoblaydi, bunda agrosanoat kompleksini (ASK) yuqori eksport salohiyatini qo'llab-quvvatlash uchun kuchli ta'sirchan ma'muriy-iqtisodiy richaglar orqali ichki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi.

Hozirgi paytda bir qator ichki ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarning mavjudligiga qaramasdan, Xitoy qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarishning yuqori ko'rsatgichlarini namoyon qilmoqda, qishloq joylarida faol ijtimoiy siyosatni amalga oshiryapti va oziq-ovqat bilan savdo qilishning jahon savdosining kon'yukturasiga ta'sirini o'tkazmoqda. Bu barchasi qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish tizimida ma'muriy va iqtisodiy choralarni uyg'unligi, qishloq xo'jaligining modernizatsiyasi tufayli imkoniyatli bo'ldi. Bu chora-tadbirlar doimo o'zgarib takomillashmoqda va sohaning samaradorligini oshirib, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashning barqarorligini mustahkamlamoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish muammolari ko'plab iqtisodchi-agrarshunos bo'lgan olimlar ishlarida o'rganiladi, jumladan, A.I. Altuxov, G.V. Bepaxotniy, H.A. Borxunov, I.N. Buzdalov, A.P. Zinchenko, C.B. Kiselev, V.A. Klyukach, E.N. Krilatiy, V.V. Miloserdov, V.I. Nazarenko, A.G. Papsov, A.B. Petrikov, E.A. Sagaydak, A.F. Serkov, I.G. Ushachev va boshqalar. Mazkur muammolar bo'yicha Dj. Gelbreyt, Dj. Keyns, P. Samuelson, A. Smit, M. Treysi kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlari ham ma'lumdir.

Xitoy iqtisodi va qishloq xo'jaligi tadqiqotlariga quyidagi rossiyalik mutaxassislarning ishlari bag'ishlangan: E.F. Avdokushin, A.B. Ananov, YA.M. Berger, L.D. Boni, II.A. Volkova, V. Gelbras, A.C. Selishev, H.A. Selishev, M.II. Titarenko va boshqalar hamda xitoylik olimlar: In Van, Din Judjun, Li Livey, Ge Sinsyuan, Tan Sin'yuy, Tao Xaydon, Szyan Szin, Li Szinven, CHjun CHanbyao, Li Chensyunya, Li Szi Shena va boshqalar.

Butun jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va unda faoliyat yuritish sharoitlari hamda mamlakatni jahon oziq-ovqat bozorida tobora oshib borayotgan roli shart-sharoitlarida Xitoy qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish tizimini shakllanish va isloh qilish xususiyatlari chuqurlashtirilgan tahlil va bahoni talab qiladi.

Maqsad va vazifalar. Mazkur ishning maqsadi Xitoyda agrar sektorning iqtisodiy islohotlar xususiyatlari yoritib berish. Bunga bog‘liq tarzda quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- XXRda oilaviy pudrat qishloqdagi iqtisodiy islohotining asosisiligi takidlandi;
- XX asrning yakunidagi agrar kompleksini isloh qilishning natijalari aniqlandi;
- Xitoy agrar asosiy sektorlarining rivojining tahlili berildi;
- Xitoy agrar sektor rivojining asosiy muammolari o‘rganib chiqildi;
- O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlarning natijalari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot obyekti – Xitoy qishloq xo‘jaligi.

Tadqiqot predmeti. Xitoy qishloq xo‘jaligini iqtisodiy islohotlar xususiyatlari.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi. Ish kirish, 2 bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. XXR QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY BOSQICHLARI

1.1 XXRda oilaviy pudrat qishloqdagi iqtisodiy islohotining asosi

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda jadal sur‘atlarda Xitoy 1978 yildan erisha boshladi, ya’ni shu yildan boshlab qishloqda islohotlar amalga oshirila boshlandi. 1978-yildan boshlab, Xitoy qishloq xo‘dalik mahsulotining o‘rta yillik daromadi 6,5%ni tashkil qila boshladi. Bozor iqtisodi sharoitlarida islohotlar davrida erga jamoa mulkchilik shakli saqlanib qolgan holda qishloqda xo‘jalik yuritishning yangi samarali shakllari topildi. Islohotlar mamlakat va dehqonlarga haqiqiy foyda keltirdi, ular qishloq xo‘jaligini, xususan, donni ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi tuzilmasini optimallashtirishga ko‘maklashdi. Qishloq xo‘jaligidagi Xitoyning sezilarli muvaffaqiyatlari haqida 1.1. jadvali aniq tasavvur beradi.

Bunda shuni hisobga olish lozimki, 1990 yillarda Xitoyning qishloq xo‘jaligi va qishloq iqtisodi ko‘plab qiyinchiliklarga duch keldi, ammo rivojlanishning qulay tendensiyasini saqlab qola oldi. 1996-2000 yillarda qiyoslangan narxlarda o‘rta yillik o‘sish 3,5%ni tashkil qildi, ammo barqaror rivojlanish tendensiyasi ham saqlanib qoldi. 1996 yilda donlarni ishlab chiqish mamlakatda tarixdagi eng yuqori darajaga etdi, ya’ni 512,3 mln. tonnani tashkil qildi. 1998-2000 yillarda jiddiy quruqchilik va ekin maydonlarining qisqarishiga qaramasdan, donlarni ishlab chiqish, 1991-1995 yildagi o‘rta darajadan yuqori bo‘ldi. 2002 yilda ekin maydonlari avvalgi yilga nisbatan 2,18 mln.ga qisqardi, ammo donni ishlab chiqarish 1 gektardan 132 kg.gacha oshib, 457,06 mln. tonnaga etdi. 2006 yilga kelib bu ko‘rsatgich deyarli 0,6 mlyardni tashkil qildi.¹

Bugungi kunda Xitoy umuman, donlarni, jumladan, guruch, paxta, raps, tamaki, go‘sht, tuxum, dengiz ne‘matlari va sabzavotlari ishlab chiqish bo‘yicha

¹Жуджунь Дин, Ковалев М.М., Новик В.В. Феномен экономического развития Китая: Мн.:Издательский центр БГУ, 2008.-423б.

dunyoda birinchi o'rinni egallaydi, choy va jun bo'yicha – ikkinchi, soya, shakar qamish, jut ishlab chiqarish bo'yicha uchinchi yoki to'rtinchi o'rinni egallaydi.

Aholi kishi boshiga qishloq xo'jalik mahsulotining hajmlari ham sezilarli o'sdi. 2006 yilda har bir kishiga o'rat hisobda 378 kg don, 62 kggo'sht, 12 kg sut va 40 kg dengiz mahsuloti to'g'ri kelar edi, bu o'rta dunyo darajasidan yuqoriroq edi. Shu bilan birga, XXRning soni oshib borayotgan aholisini donlar bilan ta'minlash muammosi mavjud: hosil 34-380 mln. tonnani tashkil qilganda ham donlar etmaydi. Xitoy olimlari istiqbolli reja tuzishdi, unga muvofiq, agarda iste'molni 2030 yillarga kelib, har bir insonga 450 kg.gacha oshirsa, hosil 650 mln.tonnagacha etkaganida ham iste'molning 4%ni import hisobidan qoplashga to'g'ri keladi.

Xitoyda qishloq islohoti muvaffaqiyatga erishdi, u butun dunyoni e'tiborini o'ziga jalb etdi. Xitoy aholisi bu islohotlarni eng muvaffaqiyatli deb nomladi. Xitoy iqtisodiy tizimining islohotlari qishloqda boshlanganligini ob'ekti sabablari mavjud. Qishloq iqtisodining avvalgi tizimi iqshloqdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojini jiddiy cheklab, daromadlarni oshishi hamda dehqonlar hayotini yaxshilanishiga to'sqinlik qilgan. 1957 yildan boshlab qishloq iqtisodining markazlashtirilgan tizimi sharoitida ilk qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kooperativlari yaratildi. Bu jarayon 1978 yildagi islohotga qadar davom etdi. Bu 20 yil ichida har kishi boshiga donlarning o'rta me'yori 12,7 kgga oshdi, paxta va yog'xom-ashyosini ishlab chiqarish esa, muvofiq tarzda 11,5% va 6,6%ga pasaydi. Bu ko'rsatgichlar qishloq xo'jalikning mavjud bo'lgan tizimi qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish va oziq-ovqat bilan ta'minlashni o'sishini samarali rag'batlantira olmaganligini ko'rsatadi.

Mamlakatni industriallashtirish davrida kapital to'plashning asosiy uslublaridan biri qishloq xo'jalik mahsulotini olib qo'yish edi. Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishni rejalashtirish, sotib olish va sotib yuborishni markazlashtirish, qishloq xo'jalik tovarlarini uzoq masofaga olib borish bilan bog'liq savdo va tijorat faoliyatini taqiqlash, qishloq bozorlarini yopish hamda aholini qishloqdan shaharga va shahardan qishloqqa harakat qilishini taqiqlash yo'li bilan davlat qishloq

iqtisodining asosiy omillari bo'lgan er, mehnat va kapitalni qayta taqsimladi. Bu payt amalga oshirilayotgan qishloq kooperatsiyasiga va mazkur asosda yaratilgan xalq kommunalarining jamoa mulkiga kelsak, davlat ma'muriy nazorat qilish uslublarini quyi qishloq tashkilotlariga berdi. Jamoa qishloq xo'jalik mulki va xalq mulki o'z mohiyatiga ko'ra bir xil bo'lsada, ular davlat qishloq xo'jaligida taqsimlash va nazorat bilan shug'ullanganida oqibatlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan edi. Bu qishloq xo'jaligi iqtisodini rejali tizim tomonidan diskriminatsiya qilinishining yorqin ifodasidir.

Qishloq xo'jaligi islohotining asosiy g'oyasi – bu dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarini berishdir. Dehqon xo'jaliklariga biriktirish Anxoy provinsiyasida boshlandi. 1978 yilning kuzida Anxoy provinsiyasida tarixda kamdan-kam bo'lgan kuchli qurg'oqchilik bo'ldi. Shuning uchun kuzgi ekinlarni ekish imkoniyati bo'lmadi. 1 sentyabrda partiyaning provinsiya qo'mitasi quyidagi qarorni qabul qildi: dehqonlarni yerni 3 feniyan (0,0201 gektar), sabzavotlarni o'stirish uchun berish, suvsiz yerga ekilgan bug'doyga oziq-ovqat solig'i solinmadi, savdo-sotiq ham amalga oshirilmadi.² Bundan tashqari ko'l atrofidagi yerlar hamda tog'larda don va yog' o'simliklarini o'stirish uchun ishlatishga ruxsat berildi va buning hosili ishlagan dehqonning o'zida qolishi e'lon qilindi.

Yer ajratilganligi tufayli dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqartish vazifalarini biriktirish uslubini tiklash imkoniyati paydo bo'ldi. 1978 yilda dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarni biriktirish 1200 ta ishlab chiqarish brigadalarida amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi yilda bularning soni 38 mingga etdi, bu esa provinsiya barcha brigadalarining deyarli 10%ini tashkil qilar edi. 1980 yilning oxiriga kelib, Anxoy provinsiyasining dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifasini biriktirish amalga oshirilgan ishlab chiqarish brigadalarining ulushi barcha brigadalarining 79%ni tashkil qildi. Shu paytning o'zida Sichuan, Guychju, Gansu ichki mongoliya va Xunan provinsiyalarida ochiq yoki maxfiy tarzda dehqon xo'jaliklariga ishlab

²Сельское хозяйство Китая // Geosite. Все о географии. 07.12.2004. <http://www.geosite.com.ru/pageid-896-1.html>

chiqarish vazifalarini biriktirish rivojlana boshlandi. 1980 yilning kuziga kelib, butun mamlakat bo'yicha ishlab chiqarish vazifalari biriktirilgan, ishlab chiqarish brigadalarining soni 20%ga etdi, 1981 yilda esa, 50%ga, 1982 yilning yozida 78%, 1983 yilning bahoriga kelganda esa, ularning soni 95%dan oshdi. Keyinchalik dehqon xo'jaliklariga ishlarning butun hajmi hamda ishlab chiqarish vazifalarni biriktirish Xitoyda xo'jalik yuritishning asosiy shakliga aylandi. Atigi 3-5 yildayoq, dehqonlar o'zi yaratgan dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarni biriktirish xo'jalik tizimi butun mamlakat bo'yicha tarqaldi. 20 yildan ziyod qishloqlarda mavjud bo'lgan xalq kommunalari bo'lgan tizimlar darhol barbod bo'ldi. Qishloqdagi islohotlarning muvaffaqiyati quyidagilar bilan asoslangan:

Birinchidan, qishloqlar qambag'al, qashshoq bo'lsada, ular o'zgarishlarga tayyor edi. Jamoa qishloq xo'jaligini past samaradorligi dehqonlarning keng ommasi uzoq vaqt o'rta me'yordan pastroq bo'lgan hayotiy darajada edi, xattoki ba'zi bir tumanlarda oziq-ovqat va kiyim muammosini hal qilish imkoniyati yo'q edi. Islohotlarni amalga oshirmasdan bunday yashashning imkoniyatsizligi 1970 yillarning oxirida Xitoyning qoloq hududlarida deyarli birdaniga, rejasiz dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarni biriktirish tizimi tiklandi.

Ikkinchidan, daromadni olish ham dehqonlarni rag'batlantirdi. Kommunalarga ishlab chiqarish vazifalarni biriktirishdan dehqon xo'jaliklariga biriktirishga o'tish ishlab chiqarishning muayyan hajmiga pudratdan yerning ma'lum maydonida xo'jalikni yuritish pudratiga o'tish shaklidagi rivojlanish amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, mahsulotning qismi davlatga, qismi jamoa mulki, qolgan qismi esa, dehqonlarga tegishli bo'lgan tizim ishlab chiqarildi. Pudrat tizimida ishlab chiqarishni oshirish dehqonlarga foydali edi, aynan bu mazkur tizimni butun mamlakat bo'yicha tez tarqalishiga rag'bat bo'ldi.

Uchinchidan, islohotlarning muvaffaqiyati egiluvchan mafkura bilan asoslanadi. Mafkurani cheklab qo'ygan chegaralardan ozod etish uchun harakatning ta'sirida provinsiya rahbarlarining qismi dehqonlar tomonidan kiritilgan amaliy yangiliklarni haqiqatda qo'llab-quvvatlay boshladi.

Nazoratni kuchsizlanishi bu tizim noqonuniy bo'lib, (yoki etarli darajada qonuniy bo'lmay) mavjud edi va rivojlanayotgan edi. To'rtinchidan, mahalliy hukumat organlari markaziy organlar qaror qabul qilishlariga o'z ta'sirini o'tkaza boshladilar. 1980 yilda Markaziy Qo'mita (MQ) barcha provinsiya va tumanlarning birinchi kotiblarini konferensiyaga chaqirdi va bu yerda dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarini birlashtirish masalasini muhokama qildi. Ba'zi bir provinsiyalar rahbariyatiga mazkur provinsiyaning tajribasini MQ siyosatiga kiritish imkoniyati berildi. Konferensiya tomonidan qabul qilingan yakuniy hujjat ishlab chiqarish brigadalariga masuliyatning xilma-xil tizimlarini, jumladan, dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarini birlashtirishni ham ishlatish imkoniyatini berdi. Alohida provinsiyalarning tajribasini birlashtirish tufayli MQ siyosatiga kiritilishi tufayli mazkur tizim butun mamlakat bo'yicha qonuniyga aylandi.

Pudrat tizimini amalga oshirish dehqonlarning iqtisodiy maqomini tubdan o'zgartirdi. Agarda xalq kommunalar tizim paytida dehqonlar o'z-o'zini boshqarishga huquqi yo'q ish kuchi bo'lgan bo'lsa, hozirda ular o'z-o'zini oqlovchi ishlab chiqarishning boshqaradigan ishlab chiqaruvchilarga aylandilar, bu sababli esa qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirdi.

O'zgarishlarning bilvosita oqibati - bu qishloq xo'jalik ishlab chiqarish o'sgani sari asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlar bilan ta'minlashdagi keskinlik asta-sekin yo'qolishi edi. 1984 yilda donlarning hosili 400 mln. tonnadan ziyod bo'ldi, bu esa islohotlarning oldingi davrdagi hosildan 1/3 ko'p edi, odam kishi boshiga donning o'rta me'yori o'rat jahon darajasiga yaqinlashdi. Shunday qilib, dehqonlarni uzoq muddat xavotirga solgan oziq-ovqat va kiyim masalalari asosan hal qilindi. Bu esa markazlashtirilgan xarid, oziq-ovqatlarni kartochkalar bo'yicha berishni yo'q qilish hamda qishloq xo'jalik mahsuloti bozorini asta-sekin ochish uchun zamin yaratdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini o'sishi sari dehqonlarda vaqt va mablag'larning ortig'i ham o'sa boshladi.

Insonlarning ko'p soni va erning kichik maydoni bo'lgan sharoitlarda ko'plab dehqonlar yangi ish izlab erdagi ishdan voz kehdilar. Bu orqali qishloq

korxonalarni keyingi yaratilishi uchun ham asos yaratildi. Hukumat hech qachon dehqonlarga mehnat bilan ta'minlab berishdan to yashashgacha, sog'liqdan saqlashdan to ta'limgacha hech qachon, hech qanday kafolat bermagan, shuning uchun ham dehqonlar islohotga qadar mavjud bo'lgan iqtisodiy tizimni yo'qotishdan qo'rqmas edilar. Ular oilaviy pudrat amalga oshirilgandan so'ng haqiqatda ham ko'proq ishlab ko'proq olish mumkinligini bilar edilar. Agarda ko'proq olish imkoniyati bo'lgan bo'lsa, ular ko'proq mehnat qilishdan qo'rqmas edilar va bosh tortmas edilar. Aynan shuning uchun shahar ishchi va xizmatchilari bilan taqqoslagan holda, dehqonlar "o'z-o'zini ta'minlash"dan qo'rqmas edilar, ular qo'rqan yagona narsa bu "xo'jalikni mustaqil tarzda olib borish" imkoniyatini yo'q bo'lishi edi. Iqtisodning avvalgi qishloq tizimini islohoti dehqonlarga aynan "xo'jalikni mustaqil tarzda olib borish" imkoniyatini berdi. Shuning uchun ham dehqonlar hech ham o'ylamasdan, islohotni qabul qildilar.

Qishloq rejali iqtisodning kuchsiz xalqasi edi, shuning uchun islohotni shu erdan boshlash qulay edi. Hukumat qishloq iqtisodini rejalashtirishni amalga oshirganida asosiysi bu qishloqlar asosiy qishloq xo'jalik mahsuloti bilan ta'minlay olishlari edi. Shu bilan birga, qishloqlarning butun iqtisodiy faoliyati davlat rejalashtirilishi bilan qamrab olingan emas edi.

Davlat dehqonlarga mehnatga joylashtirish va daromad me'yorini kafolatlab bermagan edi, ish kuniga to'lov turli brigada va turli kommunalarda rentadagi farq, boshqaruv va ishlab chiqarish texnikasining darajasi tufayli farqlanar edi. Qishloq islohotining san'ati davlat rejali iqtisodi isloh qilinmasidan oldin reja talabini qondirish – davlatga zarur bo'lgan mahsulotlarni sotib olish va shu bilan birga qishloq xo'jalik yuritish mexanizmini o'zgartirishda edi. Faqatgina shu holatda qishloq islohoti muvaffaqiyatli biron-bir to'siqlarga duch kelmay amalga oshirilar edi.

XKP MQsining 11 chaqiriq 3 plenimudan so'ng jamoa xo'jalik yuritishi kiritilgan paytidan boshlab, 4 marotaba "oila pudrati" tizim paydo bo'ldi. shuni ta'kidlab lozimki, oila pudratini qo'llashga bo'lgan harakatlar oldin ham amalga

oshirilgan edi. Birinchi marta bu 1956 yilning kuzida, keyin 1950 yillarning oxirida, soʻngra esa 1960 yillarning boshida amalga oshirildi, ammo bu harakatlar mafkuraviy sabablar tufayli toʻxtatildi. Dastlabki, harakatlardan farqli ravishda 1978 yildagi “oilaviy pudrat” tizimi qishloqlarda jadal rivojlandi, uni XKP MQsi va davlat kengashi toʻliq qoʻllab-quvvatladilar va “Xitoy dehqonlarining buyuk ijodi” deb nomladilar va bu harakat Xitoy qishloq xoʻjalik iqtisodi islohotining muhim mazmuniy qismi sifatida tasdiqlandi. Bu safardagi oʻzgarishning muvaffaqiyatining sababi MQ 11 chaqiriq 3 plenimu haqiqiy hayotga qaytganligidadir, shuning uchun “oila pudrati” va oila xoʻjalik yuritishi, yaʼni dehqonlar anchadan beri tanish boʻlgan tizimlar siyosiy asosga aylanib, jadal tarqaldi.³

Oilaviy pudrat tizimi bilan bogʻliq boʻlgan qishloq xoʻjalik islohoti Xitoy iqtisodining ahamiyatli darajada oʻzgarishiga olib kelib, xalq iqtisodi rivojiga muhim ulush qoʻshdi va shaharlarda iqtisodiy islohotlar uchun qimmatli tajribani taʼminlab berdi.

Qishloqdagi islohotlarning bosqichlari.

Qishloq islohoti boshlangʻich nuqta siftida oila pudratini oʻz ichiga olib, koʻplab sohalarda ishonchli tarzda tarqaldi. Xitoyda qishloq islohoti jarayonida 6 bosqich bosib oʻtilgan deb hisoblaydilar:

Birinchi bosqich, 1978 yildan 1984 yilgacha. Mazkur bosqichda boshqaruv va xoʻjalik yuritishning qishloq tizimi isloh qilinib, oilaviy xoʻjalik yuritish tiklandi, uzluksiz oilaviy pudrat tizim tadqiqi etilib takomillashdi. Dehqonlarning faolligi va ijodiy kuchi mobilizatsiya qilinib, qishloq ishlab chiqaruvchi kuchlar ozod etilib rivojlantirildi.

Ikkinchi bosqich, 1985 yildan 1988 yilgacha. Islohotlarning mazkur bosqichida qishloq ishlab chiqarishni boshqarish tizimlarini qishloq xoʻjalik mahsulotini ayriboshlash tizimini isloh qilishga qaratdilar, shahar va qishloq islohlari birlashdi, qishloq korxonalari yangi kuch bilan tiklandi, xoʻjalik

³Папцов, А.Г. Формы экономического регулирования сельского хозяйства за рубежом. Обзорная информ. / А.Г. Папцов. ВНИИТЭИагропром. - М., 2000. - 86 с.

yuritishning turli uslublari rivojlandi, ammo donlarni ishlab chiqarish sohasida yana muammolar vujudga keldi.

Uchinchi bosqich – 1988 yilning qishi – 1991 yilning qishi. Mazkur bosqichda iqtisodda qizish bo‘lganligi tufayli davlat qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirdi, 1990 yilda yana boy hosil olindi. Ammo davlat aralashuvi ta’siri hamda qishloq korxonalarida tartibga solish ta’siri ostida pasayish kuzatildi, dehqonlar daromadlarining darajasi pasaydi, ilk bor salbiy o‘sish kuzatildi.

To‘rtinchi bosqich- 1992-1996 yillar. Bu bosqichda Den Syaopinning janubiy nutqidan so‘ng butun iqtisodda ko‘tarilish kuzatildi, butun mamlakta bo‘yicha investitsiyalar ko‘paydi, ammo qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining asosiy omillari o‘zgarganligi sabab donlarni ishlab chiqarishda yana keskinlik vujudga keldi. SHuning uchun davlat qishloq xo‘jaligi rivojlantirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni qabul qilib, ularni amlaga oshirdi, bu tufayli 1995 yilda donlarni ishlab chiqarish osha boshladi, 1996 yilda esa juda katta hosil olindi (500 mln. tonnadan ortiq).

Oltinchi bosqich – 1997 yildan 2001 yilgacha. Iqtisodning muvaffaqiyatli “yumshoq” qo‘nishidan so‘ng makroiqtisodiy vaziyat yaxshilana boshlandi, ammo 1997 yildagi Osiyo moliya inqirozi ma’lum darajada Xitoyga ham tegib o‘tdi. Eksport pasaydi, mamlakat ichida aholi daromadlari nisbatan pasaydi va natijada talabning o‘sishi to‘xtadi va agromahsulotlarda “sotuvchi bozori”dan “xaridor bozoriga” o‘tish kuzatildi. Buning natijasida yangi muammo – donlarni sotish muammosi vujudga keldi. Natijada donlarni sotish tizimini keyingi isloh qilish kabi masala kun tartibiga qo‘yildi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi modernizatsiyasini jadallashtirish hamda qishloq korxonalarining iqtisodiy tuzilmasini uzluksiz tartibga solish masalasi ham kun tartibiga qo‘yildi.

Oltinchi bosqich – 2001 yildan so‘nggi. BSTga a‘zo bo‘lishdan so‘ng qishloq xo‘jalik mahsulotiga bo‘lgan bozor talabi ichki talabdan jahon bozori talabiga aylandi. Bu esa ishlab chiqarish tuzilmasidagi qasman o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, qishloq ishlab chiqarishining texnologik darajasini ko‘tarishni talab qildi.

Oila pudratining rivojlanishi

Oilaviy pudrat tizim chuqur va murakkab ijtimoiy islohot bo'lib millionlab dehqonlar manfaatiga tegishli bo'ldi hamda qishloq iqtisodi, siyosati va mafkurasida tarixiy o'zgarishlarga olib keldi. U xitoy qishloq xo'jaligini uzoq muddatli turg'unlikdan olib chiqib, qishloq iqtisodi uchun yuqori darajadagi qulay sharoitni yaratib berdi, qishloq islohoti tufayli to'liq va qisman o'z-o'zini ta'minlashdan tovar xo'jalik yuritish, ixtisoslashish va modernizatsiyasiga o'tildi.

Qishloq islohotini amalga oshirishning boshlang'ich bosqichida hukumat dehqonlarning ishlab chiqarish faolligini qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning qo'shimcha mahsulotlariga sotib olish narxlari, xo'jalik yuritishning turli shakllarini rivojlantirish, ishlab chiqarishning ixtisoslashishini rag'batlantirish, hududning qiyosiy afzalliklariga ko'ra, qishloq xo'jalik madaniyatlarini muvofiqligini tanlash va qishloq xo'jaligi madaniyati bilan savdo qilish bozorini kengaytirish orqali ko'tardi.

Oila pudrati dehqonlar faolligini oshirishda hamda qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishini oshirishda muhim rolni o'ynab, dehqon ommalari tomonidan barcha joylarda qo'llab-quvvatlandi. Shu bilan birga bu jarayon mutloq farovon va osuda kechmadi. 1980 yilning sentyabrida "partiya provinsiya qo'mitalari biirnchi kotiblarining umumxitoy kengashining bayoni" dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarini biriktirishning o'rni va rolini mustahkamlagan bo'lsada, biroq aynan shu bayonga muvofiq, bu faqatgina ba'zi bir yiroqda joylashgan tog'li hudud va qashshoq/qoloq hududlar uchun to'g'ri kelar edi, bundan tashqari bu "kiyim va ovqat bilan muammolarni hal qilishning faqatgina zaruriy vositasi" edi.

1981 yilda "biriktirishning ikki turli" tizim i tarqalganligi sari u nisbatan boy huudlarda ham amalga oshirila boshlandi. 1982 yilning 1 yanvarida XKP MQsi "butun xitoy qishloq ishchi kengashining bayonini" tasdiqladi va bunda u Xitoyda ishlab chiqarish mas'uliyati va javobgarligining turli tizimlarini barcha joylarda amalga oshirilishini tan oldi. "Bayon"da hozirgi paytda amalga oshirilayotgan javobgarlik mas'uliyatining barcha tizimlari, jumladan, qisqa muddatga,

belgilangan to'lovga pudrat, qo'shma to'lovli maxsus pudrat, qo'shma ishlab chiqarish, dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarini birlashtirish, brigadalarga ishlab chiqarish vazifalarini birlashtirish, ishlarning butun hajmini dehqon xo'jaliklariga birlashtirish kabilarni o'z ichiga olgan mas'uliyat tizimi sotsialistik jamoa iqtisodining ishlab chiqarish javobgarligining shakli ekanligini ko'rsatib o'tildi, va har qanday shakl agarda ommalar o'zgarishini talab qilmasa, o'zgarishini ta'kidlab o'tildi.

Bir paytlar dehqonlar siyosatni doimiy o'zgarishlaridan qo'rqqaniga bog'liq holda ikkita "uzoq muddatli o'zgaraydigan prinsiplar" haqida bayonnomada e'lon qilindi, ya'ni bunda erga va ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ijtimoiy mulkning uzoq muddatda o'zgarishligi hamda ishlab chiqarish faolligi tizimini uzoq muddatli o'zgarishligi nazarda tutilgan edi. Bu siyosiy qadamlar dehqon ommalarining barcha joydagi talablarini talab etdi, oilaviy pudrat tizimini rivojlanishi va takomillashuvida muhim rolni o'ynadi.

1981 yilning ikkinchi yarmiga kelib, oila pudrati nisbatan boy hududlar uchun ham mos ekanligini amaliyot ko'rsatdi, bu hududlarda ham xo'jalik yuritishning bunday shakllarini yaratilishini qat'iy talab etishdi. Xalq irodasini hurmat qilish shiori ostida oilaviy pudrat tizimi nisbatan rivojlangan tovar iqtisodiga ega bo'lgan boy hududlarga tarqaldi, bundan tashqari oilaviy pudrat tizimi ko'plab davlat xo'jaliklariga ham muntazam tarzda doimo tarqaldi, bu tufayli davlat xo'jaliklarining 10 yildan ziyod davom etgan zarar keltirishini bartaraf etdi va mazkur tizimning ulkan kuchini namoyon etdi.

1983 yildan so'ng davlat xo'jaliklaridagi pudrat tizimi brigadalardan xo'jaliklarga o'ta boshladi. 1984 yilning oxiriga kelib, oila pudrat tizimi 5,69 mln.ta brigadalarda amalga oshirdi. Mazkur tizim amalga oshirilmagan brigadalarining soni atigi 2000 edi. U yoki bu shaklda pudrat tizimi amalga oshirilgan brigadalar, brigadalarining umumiy sonini 96,6%ni tashkil qilar edi.

Pudrat tizimi nafaqat dehqonchilikda, balki o'rmon xo'jaligi, chorvachilik, baliq xo'jaligida ham qo'llanildi. Asosiy mazmuni "biriktirishning ikki turi" deb nomlangan pudrat tizimini hamma joyda joriy etilishi mulk qishloq tuzilmasidagi, iqtisodiy tartibga solish hamda taqsimlash tizimida ulkan o'zgarishlarga olib keldi. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojiga quvvatli rag'bat bo'ldi. 1985 yilda XKP MQsining 1-sonli hujjatida "dehqon xo'jaliklarida pudrat tizim va oilaviy xo'jalik yuritish pudratini uzoq muddat o'zgarmasligi" haqida e'lon qilindi. Bu Xitoy qishloq iqtisodi islohotidagi hal qiluvchi qadamni asoslab berdi. Birinchi jadvalda qishloqlarning asosiy holatlari va ularning quyi tashkilotlari keltiriladi.

Dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarini va ishlarning butun hajmini biriktirish – bu qishloq xo'jalikdagi ishlab chiqarish mas'uliyatining tizimidir, agarda uni markazlashtirilgan jamoa xo'jalik yuritish davridagi mas'uliyat tizimini taqqoslasak, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish mas'uliyati tizimini rivojlanishida umumiy qonunni tuzatish mumkin: jamoa ishlab chiqarish mas'uliyati tizimidan shaxsiyga, ishchi brigadalardan dehqon xo'jaliklariga o'tish.

Ishlab chiqarish mas'uliyati tizimi qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarishning yakuniy hajmi bilan bog'langan edi, uni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlari talab qiladi. Dastlabki markazlashtirilgan jamoa xo'jalik yuritish sharoitlarida ishlab chiqarish mas'uliyati tizimi amlaga oshirilgan bo'lsada, mas'uliyat brigadaning barcha ishchilariga tegishli bo'lganligi sabab ikkita bartaraf etib bo'lmaydigan to'siqlar paydo bo'ldi.

XXRqishloqlarning asosiy holatlari va ularning quyi tashkilotlari (2010y)

Nomi	1999	2000	2005	2006	2007	2008
Volost va poselkalar soni	44741	43735	35509	41040	40813	40828
Poselkalar soni	19184	19692	18888	19396	19249	19234
Qishloq qo'mitalari	737429	734715	640139			604285
Qishloq xo'jaliklari soni (10 ming)	23810,5	24148,7	25222,6			
Qishloqda band bo'lganlar soni (10 ming.)	46896,5	47962,1	48494,0	48090,0	47640,0	47270,0
Erkaklar	24995,7	25517,8	26930,6			
Ayollar	21900,8	22444,3	23456,7			
Tarmoqlar turi bo'yicha qishloqda band bo'lganlar soni (10 ming.)	46896,5	47962,1	50387,3			
Qishloq, o'rmon xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik	32911,8	32797,5	29975,5			
Sanoat	3953,0	4108,6	6011,5			
Qurilish sektori	2531,9	2691,7	3653,2			
Transport, omborga qo'yish va pochta elektr aloqasi	1115,8	1170,6	1567,3			
Ulgurji va chakana savdo , umumiy ovqatlanish	1584,6	1751,8	2937,7			

Boshqa qishlo xo'jalik bo'lmagan sektorlar	4799,4	5441,9	6242,0			
Qishloq xo'jalik mashinalarining umumiy energiyasi (10 ming. kilovatt)	48996,1	52573,6	68397,8	72522,1	76589,6	
Yirik va o'rta traktorlar	784216	974547	1395981	1718247	2062731	
Yirik va o'rta traktorlarning quvvati (10 ming kilovatt)	2772,8	3161,1	4293,5	5245,3	6101,1	
Kichik traktorlar (10 ming dona)	1200,3	1264,4	1526,9	1567,9	1619,1	
Kichik traktorlar quvvati (10 ming kilovatt)	11008,9	11663,9	14660,9	15229,1	15729,2	
Yirik va o'rta traktor tyagasidagi asbob- uskunalar (10 ming, dona)	132,0	140,0	226,2	261,5	308,3	
Kichik traktor tyagasidagi asbob- uskunalar (10 ming dona)	1621,0	1788,8	2465,0	2626,6	2733,0	
Drenaj-sug'orish agrodizeli (10 ming dona)	645,0	688,1	809,9	836,4	861,5	
Drenaj-sug'orish agrodizel quvvati (10 ming kilovatt)	4934,6	5232,6	6034,0	6148,8	6282,8	
Baliqchilik o'z yurar kemalari	417379	459888	439604	492126	524848	
Baliqchilik o'z yurar kemalarning quvvati (10 ming kilovatt)	1253,1	1338,7	1376,1	1498,3	1605,3	

Sugʻorishning samarali maydoni (ming ga)	53158	53820	55029	55750	56518	
Ishlatilgan kimyoviy oʻgʻitlarning hajmi (10 ming t)	4124,3	4146,4	4766,2	4927,7	5107,8	5239,0
Qishloq elektrostansiyalar soni	31678	29962	26726	27493	27664	
Qishloq elektrostansiyalar quvvati (10 ming kilovatt)	664,1	698,5	1099,2	1243,0	1366,6	
Qishloqlarda energiyani isteʼmol qilish (100 mln. kilovatt-soat)	2173,4	2421,3	4375,7	4895,8	5509,9	
Oʻsimlik ekishning umumiy maydoni (ming ga)	156373	156300	155488	152149	153464	156270
Donlilar	113161	108463	104278	104958	105638	106790
Don	91617	85264	81874	84931	85777	86250
Tozalanmagan guruch (sholi)	31284	29962	28847	28938	28919	
Bugʻdoy	28855	26653	22793	23613	23721	
Joʻxori	25904	23056	26358	28463	29478	
Dukak	11190	12660	12901	12149	11780	12120
Xitoy Yamsi	10355	10538	9503	7877	8082	8430
Moy oʻsimliklari	13906	15400	14318	11738	11316	12830
Paxta	3726	4041	5062	5816	5926	5750
YOgʻ-moy oʻsimliklari	205	262	335	283	263	220

SHakar qamish	1644	1514	1564	1567	1802	1990
Tamaki	1374	1437	1363	1189	1164	1330
Sabzavot	13347	15237	17721	16639	17329	17880
CHoy plantatsiyalar maydoni (ming ga)	1130	1089	1352	1431	1613	1720
Meva bog'lari maydoni (ming ga)	8667	8932	10035	10123	10471	10730

Manba: Жуджунь Дин, Ковалев М.М., Новик В.В. Феномен экономического развития Китая: Мн.:Издательский центр БГУ, 2008.-446 с

Birinchidan, har bir muayyan ishchi tomonidan mehnat xissasini baholash muammosi, chunki mehnatni ishlab chiqarishning yakuniy haemi bilan bog'liq bo'lmagan ravishda to'g'ri baholash imkoniyati yo'qdir. Ammo ishlab chiqarishning yakuniy hajmiga bog'liq ravishda mehnatni baholash uchun barcha dala ishlariga, jumladan, ishlab chiqarishning yakuniy hajmiga ham muayyan ishchilarga pudrat berishi lozim, buning uchun esa xo'jalik yuritishning birligi oila bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni boshqaruvining narxi muammosi. Gap shundaki, qishloq xo'jalik ishlarning turlari juda ko'p, ishlar xilma-xil bo'lib, tarqoq bo'lganligi hamda mavsumga qarab farqlanishi sabab jamoa mehnatini amalga oshirishda mehnat me'yorlarini o'rnatish, ishni bajarishni tekshirish, to'lov me'yorini tasdiqlash uchun ko'p vaqt va kuch xarajat qilishga to'g'ri keladi. Agarda bu masalalarni oila hal qilsa, ular ancha soddalashadi: oila a'zolari uchun har bir a'zo tomonidan qancha mehnat qilinganligini hisoblash zaruriyati yo'q, shuning uchun boshqaruv va hisob-kitobga alohida sarf-xarajat qilish ham kerak emas.

Oilani asosiy birlik sifatida ajratilishi bu qishloq xo'jaligini yuritish shaklining o'zgartirishi emasdir. Markazlashtirilgan jamoa xo'jalik yuritishda, markazlashtirilgan taqsimlashda dehqon oilasi bu atigi iste'mol sub'ektidir. Dehqon

xo'jaliklariga ishlab chiqarish vazifalarini va ishlarning butun hajmini biriktirgandan so'ng, dehqonlar ishlab chiqarish va to'plashning sub'ektiga aylandi, bu albatta, dehqonlarning ishlab chiqarish faolligini oshirishda muhim rolni o'ynadi. Dehqon oilalari xo'jalik yuritishning nisbatan mustaqil sub'ektlari sifatida iqtisodiy faoliyatga kirib kelganlaridan so'ng haqiqatda ham, qishloq mulkini to'plash, ishlarni taqismlashda ahamiyatli o'zgarishlar bo'ldi, buning barchasi yoapiq qishloq iqtisodini ochiqqa aylanishiga hamda modernizatsiyaga o'tishga olib keldi. Qishloq iqtisodidagi oila (dehqon xo'jaligi)ning yangi o'rnining ahamiyatini yuqori ekanligini ta'kidlash lozim.⁴

1990 yillardagi qishloq islohotlari

1990 yillarda qishloq reformasi rivojlanish muammolariga duch keldi. Bu muammolar 1980 yillardagidan farqlanar edi. Bu asosan, islohotlar boshida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'sishi me'yordan ortiq bo'lgan bo'lsa, keyinchalik sekinlashib, xattoki to'xtab qoldi. Asosiy sabab qishloq xo'jalik mahsuloti bozorlarining ochilishi, xalqaro bozorlarda qishloq xo'jalik mahsuloti bilan savdo qilish erkinligining kuchayishidir, natijada qishloq xo'jalik mahsuloti bozorlarida raqobat kuchaydi. Bu barcha omillar Xitoy qishloq xo'jalik mahsulotini ichki va tashqi bozordagi saqlanib qolishiga kuchli bosimini o'tkazdi.

Ammo XKP MQ va davlat kengashining faol hamma tomonlama sa'y-harakatlari tufayli qishloq islohoti olg'a qadam bosdi. 1995 yilning boshida bo'lib o'tgan qishloqdagi ish muammolari bo'yicha butun Xitoy kengashida qishloq xo'jaligi sohasidagi etti asosiy yo'nalishi aniqlandi: qishloqda iqtisodiy siyosatni barqarorlashtirish va takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga kapital qo'yilmalarni imkon qadar oshirish, qishloq xo'jalik resurslardan to'liq foydalanish, agro texnikaga urg'u bergan holda qishloq xo'jalikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va iste'mol tizimini isloh qilish, qishloq xo'jaligini makroiqtisodiy tartibga solinishini kuchaytirish.

⁴Цзиньвэнь, Л. Роль государственного регулирования в реформировании и развитии экономики Китая / Л. Цзиньвэнь // Вестн. Моск. ун-та. Сер.6. Экономика. 1997. - №5. - С.73-89.

Islohotning asosida oila tartibi tizimini kiritishda, xo‘jalik yuritish va mulkning turli shakllarini saqlab qolish va mavjudligida, kichik qishloq korxonalarni tashkil qilishda agrosiyosatning asosiy yo‘nalishlarini saqlab qolish. ASKga e‘tiborni kuchaytirish avvalambor, bu sohaga kapital qo‘yilmalarni ko‘paytirishni nazarda tutardi. Bundan tashqari, ko‘plab provinsiyalarda dehqonlarni irrigatsiya qurilishi va qishloq xo‘jalikning boshqa turlarida majburiy ishtirok etish amaliyoti tiklandi. Bug‘doy va paxtaning yuqori hosildor navlarini joriy etish bo‘yicha ko‘p yillik maqsadga yo‘naltirilgan maqsad, vazifalar ilk natijalarini berdi.

Qishloq iqtisodidagi muvaffaqiyatlar iqtisodiy holatni barqarorlashuviga, ijtimoiy talab va ehtiyoj o‘rtasidagi ziddiyatlarni qisqarishiga, bozorlarni ASK mahsuloti bilan to‘yinishi va narxlarni pasayishiga ko‘maklashdi.

Butun Xitoy kengashi qarorlarini amalga oshirilishi asosan quyidagi 5 jabhada namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, qishloq xo‘jaligini yuritishning barqarorligi er maydoni kafolatlanganligiga bog‘liq. SHuning uchun XKP MQ VSNP va davlat kengashi bir qator hujjatlarni qabul qildilar, bu hujjatlar oila pudrati tizimini huquqiy holatini mustahkamlab berdi. SHu bilan birga, erga pudrat muddatini uzaytirilishi erdagi pudrat xo‘jalik yuritish huquqini berilishini rag‘batlantirdi. Er pudrati muddati 30 yilgacha uzaytirildi, erlarni o‘zlashtirish, ya‘ni urug‘ni haydash, o‘rmon ekinlarini ekish, qumlar bilan kurashish va merolatsiya kabilarga bo‘lgan pudratning muddati esa undan uzunroq edi. Erga ijtimoiy mulkni saqlanib qolishi hamda erdan qishloq xo‘jalik maqsadlarida foydalanish barqarorligi, buyurtmachini roziligi bilan pudratchi pudrat davrida vazifani berish, almashtirish, ulush olish huquqiga ega edi; o‘zlashtirilayotgan ob‘ektlarda pudrat xo‘jalik yuritish huquqini meros qilishga ruxsat berildi, bundan tashqari o‘zlashtirilgan resurslardan foydalanish huquqining pudrati va ijarasi va oldi-sotdisiga ruxsat berildi.⁵

⁵ Синьуй, Т. Китайские крестьяне полностью освобождены от уплаты сельскохозяйственного налога // Kitairu.net. <http://www.kitairu.net/rus/aboutchina/magazine/archive/2006/2/80>

Ikkinchidan, qishloq xo‘jalik mahsulotiga talab va ehtiyojni makroiqtisodiy tartibga solish tizimi qayta o‘rganib chiqildi. Provinsiya xalq qo‘mita raislarini “bir qop guruch”, shaharlar merlariga “sabzavot savati” deb nomlangan mas’uliyat tizimi kiritildi. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining qishloq xo‘jalik mahsulotlarining talab va takliflariga tartib solish bo‘yicha huquq va majburiyatlari kengaytirildi, qishloq xo‘jalik mahsulotining talab va taklifni tartibga solish bo‘yicha imkoniyatlar kuchaytirildi.

Uchinchidan, don-dukak, paxta va kimyoviy o‘g‘itlarning tovar ayriboshlash tizimi isloh qilindi. Don-dukak va paxtaga narxlarni pasayishi va ishlab chiqarishning qishloq xo‘jalik vositalariga narxlarni tez o‘sishi tufayli vujudga kelgan disproporsiyaga muvofiq tarzda XKP MQsi bir qtaor choralarni qabul qildi, jumladan, don-dukak va paxtalarni oldi-sotdi boshqaruvini kuchaytirdi, maxsus oziq-ovqat zaxiralarini yaratdi. Sotib olish narxlar tizimini to‘g‘riladi, kimyoviy o‘g‘itlar ayriboshlovi me‘yorlashtirildi, kimyoviy o‘g‘itlarni berish yoki sotishda “bitta bosh kanal va ikkita yordamchi” kanal tamoyili amalga oshirildi. Dehqon korxonalari asosiy kanal hisoblansa, ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan sotishni mustaqil ta‘minlash yordamchi kanal hisoblangan.⁶

To‘rtinchidan, qishloq korxonalarining huquqiy hoati belgilandi. Xissadorlik kooperatsiyasi tarqaldi, investitsion va tijorat muhim yaxshilandi. 1996 yilning oktyabrida 8 chaqiriq VSNP “XXRda qishloq xo‘jalik korxonalari haqidagi qonun”ni qabul qildi. Bu erda xalq iqtisodida qishloq korxonalarining o‘rni belilandi, qishloq korxonalarini qo‘llab-quvvatlab, ularni xissadorlik tijoratning imtiyozli aksiya va aksiyalarning qo‘shimcha emissiyasi kabi shakllari ishlatilishini qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirish lozimligi haqidagi g‘oya ilgari surildi, bundan tashqari mulk shaklidan qat’iy nazar tumanlararo va tarmoqlararo xo‘jalik texnik

⁵ Соколова, Ж.Е. Роль многопрофильной несельскохозяйственной деятельности в социально-экономическом развитии сельской местности современного Китая: Обзорн. информ. / Ж.Е. Соколова. -ВНИИТЭИагропром. М., 2001. - С. 11-29.

birlashmalar birgalikda xissadorlik jamiyat yoki xissadorlik kooperativlarning qo'shma holda tashkil qilish ruxsat berildi.

Beshinchidan, qishloqlarda ijtimoiy islohotlar ham ilgari surildi, dehqonlarning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyalandi. Qishloq saylov tizimi hamda qishloq aholi majlislarining tartibi yaratildi va takomillashtirildi, qishloq aholisini siyosiy faoliyatda ishtirok etishda huquqi kafolatlandi, iqtisodiy qobiliyatlarga ega bo'lgan dehqonlar shaharga doimiy yashash uchun ketish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Dehqonlar bu iqtisodiy afzalliklar tufayli shaharlarga doimiy yashashga ketishlari, u erda korxona yaratishlari mumkin edi. Dehqonlar esa, tanlov asosida davlat xizmatiga ishga qabul qilinishlari mumkin bo'ldi.

Qishloq-volost korxonalari bu qishloq tumanlaridagi dehqonlarning korxonalaridir. Qishloqdagi islohot hamda qishloq xo'jaligidagi ilmiy texnik progress yuqori daraja ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi, natijada qishloq ishchi kuchining ulkan qismini dala ishlaridan ozod bo'lib, qishloq-volost korxonalarni rivojlantirish uchun asosini tashkil qildi. Ularning mahsulotining past narxi bilan ajralib turgan, hamda past narxi asosiy raqobatbardosh ustuvorligi bo'lib, bu mahsulotlar, butun mamlakat bo'yicha tez tarqaldi.

Qishloq-volost korxonalari sohasi juda ham kengdir, ular sanoat, qishloq xo'jalik mahsulotining qayta ishlash, transport va yuk tashish, qishloqdagi qurilish, savdo, umumovqatlanish va xizmat ko'rsatishni o'z ichiga qamrab oldi. Qishloq-volost korxonalari dehqonlar daromadi o'sishining hamda qishloq iqtisodi rivojining asosiy manbasiga aylandi.

2002 yilda mamlakatda 21,33 mln. qishloq-volost korxonalari mavjud edi. Ularda 132, 88 mln. ishchi ishlar edi, qo'shimcha narxi 3,24 trln yuanni tashkil qildi, bu esa avvalgi yilnikidan 10,32%ga ko'proq edi. 10 mingta korxonaga tovar ayriboshlash yilligi 50 mln. yuandan ziyod edi, 4,8 ming korxonalarda – 100 mln. yuan, mazkur korxonalar mahsulotlarining 30 turidan ziyodi Xitoy mashhur belgisiga ega. Qishloq-volost korxonalari iste'mol sektori va kapital qurilishga yo'naltirilgan iqtisodning tez sur'atlar bilan o'sayotgan sektorini barpo etdi. Aslida

mamlakatda shahar atrofi tumanlarining iqtisodi o'zgardi, bu iqtisod ortiq bo'lgan qishloq aholisini ishga jalb etdi.

1.2. XX asrning yakunidagi agrar kompleksini isloh qilishning natijalari

Qishloq iqtisodiy islohoti dehqonlarning faolligini mobilizatsiya qildi, qishloq ishlab chiqarish kuchlarini ozod qilib, qishloq iqtisodiga ahamiyatli o'zgartirishlar kiritdi, xalq iqtisodining rivojiga o'z muhim xissasini qo'shib, shahar islohoti uchun tajriba ortirib berdi.

1. Islohotlar qishloq iqtisodida ahamiyatli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qishloq iqtisodi makroiqtisodiy siyosat yaxshilanganligi tufayli quyidagilarga erishdi:

- xo'jalik yuritish sohasida: don-dukaklarni yagona ishlab chiqarish, erga yagona ishlov berish an'anaviy g'oyasidan voz kechib, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, chorvachilik, yordamchi faoliyat va baliqchilikni hamma tomonlama rivojlanish yo'liga kirdi;

- mulk sohasida: davlat mulkini yo'q qilib, bozor iqtisodi tomoniga katta qadam qo'ydi va shu bilan bir paytda iqtisodning xilma-xil unsurlarini saqlab qoldi.

Qishloq xo'jaligi islohoti ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ko'maklashib butun dunyo e'tiborini jalb etgan muvaffaqiyatlarga erishdi. Rivojlanish nafaqat sonli ko'rinishdagi o'sish, balki bu sifatdagi ko'tarilishdir ham. Sifatdagi o'zgarishlar esa islohot ko'maklashgan ishlab chiqarish uslublarini o'zgartirilishi tufayli imkoniyatli bo'ldi. Ishlab chiqarish uslublarini o'zgartirish – rivojlanishning markaziy mazmunidir, u qishloq iqtisodi rivojini sifatli tavsiflab belgilab berishini ko'rsatdi. Sonli o'zgarishlar esa iqtisodning faqatgina miqyoslarini aks etadi. Qishloq iqtisodi asta-sekin tovarli bo'lganligi iqtisodiy tizimni o'zgarishini muhim belgisi bo'ldi. Oila pudrati dehqonlarning ishlab chiqarish faolligining mobilizatsiya qildi.

1978 yilda o'z-o'zini ta'minlashga iste'mol xarajatlari 60,3%ni tashkil qilgan bo'lsa, 1980 yilga kelib, Xitoy dehqonchiligi tarixida davriy ma'noga ega bo'lgan

o'zgarish kuzatildi: ishlab chiqarish iste'moliga sarf-xarajatlar o'z-o'zini ta'minlashga bo'lgan sarf-xarajatlarda oshib, iste'mol sarf-xarajatlarining 50,4%ni tashkil qildi, bu natural xo'jalikdan tovar iqtisodiga qo'yilgan tarixiy qadam edi. 1985 yilga kelib, ishlab chiqarish iste'moliga bo'lgan sarf-xarajatlar 60,2%ga etdi; bu tovar ishlab chiqarishi bilan band bo'lgan ishchi kuchining qayta tiklanishi barqaror tarzda ustuvor o'rinni egalladi va qayta ishlab chiqarish islohotini tovar qayta ishlab chiqarish sifatidagi shaklini belgilab berdi.


Qo'yilmalarning ishlab chiqarish xarakteri asosiy o'rinni egallaganligi Xityo qishloq xo'jaligining tovar iqtisodiga kirib kelishini hamda tovar iqtisodi qonunlariga bo'ysunishini belgilab beradi. Bu iqtisodiy fakt bundan boshlab bozor, bozor talabi va taklifi munosabatlari qishloq munosabatini tartib solinishi, ishlab chiqaruvchi va iste'molchining harakatlarini belgilab berishidan darak beradi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining yordamchi mahsulotlari tovarligi o'sishining tezligi ham misli ko'rilmagna edi. 1980 yilda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning yordamchi mahsulotlarining tovarligi 49,6%ni tashkil qilgan bo'lsa, 1986 yilda 58,2%, 1990 yilda esa 60%ga etdi. Qishloq xo'jalik mahsulotining umumiy tovarligi 50%dan oshganligi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish maqsadini muhim o'zgarganligidan darak berar edi.

2.Qishloq islohoti xalq xo'jaligi iqtisodiga muhim xissasini qo'shdi.Qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarishning o'sishi hamda asosiy mahsulotni yuqori darajada ko'payishi shahar va qishloqlardagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirdi. 1997 yilda 1990 yilga nisbatan don –dukakliklarning yalpi mahsuloti 48 mln. tonnaga oshdi va 494 mln.ga etdi. 1998 yilda esa, u 500 mln. tonnadan oshdi. Shunday qilib, to'qqizinchi besh yillikning maqsadi – XX asrning oxiriga ishlab chiqarishni 100 mlrd kg.gacha etkazish maqsadiga erishildi, paxtani yalpi ishlab chiqarishi barqaror bo'lib qoldi va tobora oshib bordi; cho'chqa, qo'y, mol go'shtining yalpi ishlab chiqarilishi 22,6 mln. tonnaga oshdi va 47,7 mln. tonnaga etdi, mevalarni yalpi ishlab chiqarish 32 mln. tonnaga oshdi va 50 mln.tonnaga etdi.

Dehqonlar hayoti, umuman olganda, yaxshilandi, qishloq aholisida iste'mol to'qchilik va kiyim etarlilik darajasidan oshdi va boylik darajasiga qarab o'zgara boshladi. Islohotlar davrida ishlab chiqarish hajmlarini ahamiyatli o'sishi va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidan tashqari ishlab chiqarishning boshqa turlarini rivojlanishi dehqonlarning pul daromadlarini oshirishiga olib keldi. Yalpi Ichki Maxsulotning sektorlardagi ulishi 2011-yilda Qishloq Xo'jaligida 16%ni, Sanoatda 50% ni , Xizmat ko'rsatish sohasida esa 34% ni tashkil etdi.

1.2.1-diagramma

XXR Yalpi Ichki Maxsulotning sektorlardagi ulishi (2011-yilda)



Manba: <http://www.rian.ru>

Xitoyning umumiy tashqi savdo-sotig'i 955,6 mlrd.AQSH doll.ni tashkil qilib, undan 495,4 mlrd.AQSH doll.ni eksport va 460,2 mlrd.AQSH doll.ni import tashkil qiladi. Tashqi savdo-sotiq bo'yicha Xitoy 1978 yilda 32-o'rini band qilgan bo'lsa, 2006 yilga kelib, jahondagi eng etakchi mamlakatlar qatoriga qo'shildi.

Eksportning asosiy mahsulotlariga engil sanoat mahsulotlari, to'qimachilik, radiotexnika va elektronika, poyafzal mahsulotlari, oziq-ovqat sanoati, ximiya

sanoati mahsulotlari kiradi. Importni esa ba'zi neft mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, avtomobillar, kompyuter va boshqa mahsulotlar tashkil qiladi.

Xitoy jahon xo'jaligida ko'mir qazish, po'lat quyish, to'qimachilik mahsulotlari, dukkakli ekinlarni etishtirish (yog` olinadigan-mosh, erylav, loviya, pista, kanop), sement ishlab chiqarish, bug'doy, paxta, go'sht etishtirish bo'yicha, "chiqindi"lardan qayta mahsulot ishlab chiqarish, 2004 yildan boshlab, televizor ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda turadi. U aholi va ishchi kuchining ko'pligi bo'yicha ham jahon xo'jaligida 1-o'rinda turadi.

1984 yilda o'rta hisobda har bir kishi boshiga pul mablag'lari 113,12 yuanni tashkil qildi, bu esa 1978 yildagi daromadlardan ancha yuqori edi, bu ko'rsatkich 1985 yilda 357,39 yuanni, 1990 yilda esa 676,67 yuanni tashkil qildi. Dehqonlarning pul mablag'larini bu darajada yuqori o'sishi nafaqat qishloq xo'jaligi moddiy ishlab chiqarish hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarning qayta ishlab chiqarishidagi tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi, balki sanoat va qishloq xo'jaligi, shahar va qishloq, davlat va dehqonlar o'rtasidagi munosabatlarda bir qator o'zgarishlarga sabab bo'ldi. 1992 -1996 yillarda yiliga dehqonlarning sof o'rta daromadi yiliga o'rat hisobda 5,7%ga oshgan edi, 1999 yilga kelib, u 2210 yuanga etdi, bu dastlabki yildan 3,8%ga ko'proqdir.

1996 yilda dehqonlarning omnatlarining yil oxiriga saldosi 760 mlrd. yuanni tashkil qildi, bu 1991 yildagidan 300 mlrd. yuanga ko'proqdir. Dehqon va shahar aholisi o'rta sof daromadi o'ratsidagi farq 1994 yilda 1:2,61ni tashkil qilgan bo'lsa, 1996 yilda 1:2,27 gacha qisqardi. Dehqon daromadlarining o'sishida davom etishi dehqonlar hayotini yaxshilash uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratdi. 1997 yilda 1990 yilga nisbatan dehqonlarning oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tovarlaini o'rta iste'moli barqaror tarzda oshdi, oziq moyi, cho'chqa, qo'y, mol go'shti, tuxum, baliqchilik mahsulotlarining iste'moli 22,3 kg.dan 29,2 kg.gacha ko'tarildi va o'sishi 30,1%ni tashkil qildi. 100 ta dehqon xo'jaliklariga o'rat hisobda 92,4 televizor, 142 ta velosiped, 22 ta kir yuvish mashinasi, 32 ta radio priyomnigi to'g'ri kelar edi, ularning soni muvofiq tarzda 108 %, 20,3%, 144% va 79,7%ga oshdi. Muzlatgich,


video magnitafon, fotoapparat va konditsioner kabi buyumlar dehqon oilalarida paydo bo'la boshladi. "Qishloq daromadini kompleks baholash" ko'rsagichlar tizim bo'yicha davlat statistik byuroning baholashiga ko'ra, dehqonlar hayotining umumiy darajasining bahosi 1991 yildagi 58,5 balldan, 1997 yilda 80 ballgacha ko'tarildi.⁷

Qishloq iqtisodi tuzilmasi doimo takomillashdi. 1980 yillarning boshida YAIMdagi qishloq xo'jaligi ulushi 32 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2001 yilda bu ko'rsagich 15,2%ga teng edi. Xizmatlar sohasining ulushi 4,4%ga oshib, 12%ni tashkil qildi. Qishloq ishchi kuchining ulushi 1978 yildagi 70,5%dan 2000 yilda 50%gacha oshdi. Qishloq korxonalarini jadal o'sishda davom etdilar. 1996 yilda qishloq korxonalarining o'sishi 1991 yilga nisbatan 5 barobarga ko'paydi va butun mamlakat bo'yicha qishloq o'sishining 56%ni YAIM bo'yicha esa 26%ni tashkil qildi. Ishchi va xizmatchilar soni 135 mln.ga etdi, bu davlat korxonalaridagi ishchi va xizmatchilarning umumiy sonidan ko'proq edi. Bu ko'rsagich 1991 yildagidan ko'ra 40 mln. kishiga ko'paydi. Yiliga o'rat hisobda 7,8 mln. odamlar ishga joylashdilar. Qishloq korxonalarini qishloq iqtisodi va xalq iqtisodiga qo'shgan xissasi doimor oshib bordi. Qishloq korxonalarini nafaqat qishloq iqtisodining jonlantirish asosiy kuchi, ular xalq iqtisodi o'sishining yangi datslabki nuqtasiga aylandi. Qishloq islohoti qishloq iqtisodi barqaror rivojiga yangi ulushini qo'shdi, agarda 1990 yillarning boshida qishloq iqtisodi o'sishi sekinlashgan bo'lsa, 1990 yillarning o'rtasidan boshlab, 1995 yildan boshlab qishloq xo'jaligida doimo boy hosildorli kuzatildi, narxlar indeksi yildan-yilga pasaydi. Qishloq iqtisodini inflyasiyani ushlab qolish va makroiqtisodiy ahvolni yaxshilashdagi roli yaqqol ko'rindi. Qishloq iqtisodining rivoji xalq iqtisodi o'sishini qo'llab-quvvatladi. 1991-1996 yillarda qishloq xo'jaligini YAIM o'sishiga qo'shgan ulushi 7%dan 10,6%gacha ko'tarildi. Dehqonlar tomonidan qishloq xo'jaligi chegarasi ortida sotgan tovarlarning qiymati deyarli 30 barobarga oshdi. 1978 yildan boshlab, Xitoy

⁷Трейси, М. Сельское хозяйство и продовольствие в экономике развитых стран: Введение в теорию, практику и политику / М. Трейси. Пер. с англ. -СПб.: Экономическая школа, 1995. -431 с

yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining o'rat yillik o'sishi 6,5%ni tashkil qiladi va jahondagi qishloq xo'jalik rivojlanishining o'rat darajasidan yuqoriroqdir.

1.2.2-diagramma



Manba: muallif tomonidan www.issras.ru/globadl_science_review malumotlariga kora tuzilgan.

Xitoy jahon don xavfsizligiga o'z ulushini qo'shdi. BMT qishloq xo'jaligi tashkilotining statistikasiga muvofiq 1990 yildan boshlab, Xitoy butun dunyo bo'yicha dok-dukakliklarni ishlab chiqarish o'sishining umumiy qiymatiga 32 %ni va go'shtni ishlab chiqarilishini o'sishiga 80%ni qo'shadi.⁸

Qishloq islohoti rivojidadagi ulkan muvaffaqiyatlar Xitoy iqtisodiy tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish hamda Xitoy iqtisodi tuzilmasini takomillashtirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Butun jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lgandan so'ngi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishdagi muammolar

⁸<http://www.rian.ru>

XXR Butun jahon savdo tashkilotga a'zo bo'lganidan boshlab, qishloq xo'jalik bo'yicha o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni bajarishi lozim. Bu majburiyatlar o'z ichiga 2004 yilning boshiga qishloq xo'jalik mahsulotiga kirish bojlarini 22%dan 17%gacha, Amerika mahsulotlariga esa 31dan 14%gacha pasaytirishni hamda shu bilan bir qatorda 25-35 %dan 9-18 %gacha raps va saryog', mandarin va vinolarga bojni pasaytirishni hamda asosiy mahsulotlarga (bug'doy, jo'xori, guruch, soya yog'i, paxta va x.k.) tarif kvotalarini yo'q qilish, importga bo'lgan barcha tarifga tegishli bo'lmagan to'siqlarni yo'q qilish, sektor mahsulotining umumiy qiymatidan 8,5%gacha subsidiyalarni pasaytirish (bu rivojlangan mamlakatlar limitidan ham pastroqdir).

Xitoy dehqonlari, ayniqsa, don-dukak ishlab chiqaruvchi dehqonlar XXRni BSTga a'zo bo'lganligi tufayli qat'iy raqobatga yuz tutdilar. YAqindagina kommunadan ozod bo'lib, ijara antijasida kichik erga ega bo'lgan dehqonlar agrar sektorini modernizatsiyalash zaruriyatini hamda xorijiy oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilari bilan raqobatbardoshlikka asos bo'luvchi xo'jaliklarni yaratish yo'li ularni kutayotgan murakkab vaziyatlarni angelayptilar.

Xitoy mayda tovarlik qishloq xo'jaligi fan va texnika, marketing, boshqaruv yutuqlarini qo'llash sohasida rivojlangan mamlakatlarning yirik fermalarining ortidadir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining 2 qavatli tizimi dehqonlar oila xo'jaligiga erning qismini pudratga olishi, qolgan qismi esa, jamoa tomonidan boshqarilishida qolganligi bilan tavsiflanadi. Alohida xo'jaliklar qila olmaydigan barcha narsani jamoa xo'jaligi o'z zimmasiga oladi. BSTga a'zo bo'lish natijasida xo'jalik yuritishning ba'zi bir shakllarini rivojlanishi nisbatan jadallashdi, bular qatoriga kooperativ, xissadorlik kooperativ, xususiy firmalar kiradi. 1980 yildan boshlab davlat don-dukak, paxta va mahsulotning ba'zi bir boshqa turlarini sotib olishni davlat rejali shartnomalar asosida olib bormoqda, mahsulotning qoldiiqlari bozorga yuboriladi.

BST ga a'zo bo'lishi bilan Xitoy qishloq xo'jaligi ba'zi bir qiyinchiliklarga duch keldi: qishloq xo'jalik mahsulotining importi ma'lum darajada oshdi, oziq-

ovqatning ichki narxlari xalqaro darajasi bilan tenglashdi, eksport subsidiyalari esa yo‘q qilindi.

Don-dukak etishtiruvchi dehqonlar, ayniqsa, quruqchilik hududida dok etishtiruvchi dehqonlar qiyinchilikka duch keldi. Bundan tashqari Xitoyni BSTga a‘zo bo‘lishi xitoylik jo‘xori ishlab chiqaruvchilarga katta zarba berdi, chunki ular xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan ochiqdan-ochiqdan raqobatda bo‘lishlariga to‘g‘ri keldi. Xitoy ichki bozorida tovar jo‘xorisining narxi BSTga xitoy a‘zo bo‘lishiga qadar jahon narxidan 60% yuqori edi.

Xitoyda ishchi kuchining arzonligi va shu orqali mahsulotning past tan narxi haqidagi an‘anaviy mulohazalar ham aniq bo‘lmadi. XXRning mayda miqyosli qishloq xo‘jaligi mehnat ishlab chiqarishining unchalik yuqori bo‘lmagan darajasiga ega emas edi.

Xitoy parrandachilik, dengiz mahsulotlari, meva, gullar sohasida raqobatbardosh bo‘lib qolmoqda. Xitoy dengiz mahsulotlari bo‘yicha etakchilik qiladi, u baliq, malyusk va suv o‘tlari uchun guruch dalalari va dengiz sohillaridan keng foydalanadi. BSTga a‘zo bo‘lgunga qadar ham, Xitoy 12-13 mlrd dollar hajmida oziq-ovqatni eksport qilar edi.⁹

BST oldida berilgan majburiyatlari to‘liq amalga oshirilishi, ya‘ni import tariflar va eksport subsidiyalarni yo‘q qilish yoki qisqartirish bo‘yicha majburiyatlarni bajarilishi Xitoy bug‘doy, paxta, jo‘xori va guruchni ishlab chiqarish sohasida 13 mln. ishchi o‘rinni yo‘qotishiga olib keladi degan taxmin mavjud edi. Bu bashoratlarga ko‘ra, qishloq xo‘jalik mahsulotining importi 2 barobardan ziyodga oshdi: 1995 yildagi 5%dan 2010 yildagi 12%gacha. Bunga bog‘liq ravishda 2003 yilda Xitoyda raqobatbardosh afzallikka ega bo‘lgan mahsulotning eng istiqbolli turlarini ishlab chiqarish bo‘yicha 12ta tarmoq hududlarini yaratishning strategik dasturi tezkor ravishda qabul qilinib joriy etildi. Mazkur hududlarni shakllantirish asosiga ilmiy hududlarishtirish, mehnatning ixisoslashuvi va taqsimlanishi olindi.

⁹Цзинвэнь, Л. 21 шицзи дэ Чжунго цзинцзи фажан чжанлуэ (Экономическая стратегия Китая в XXI в.) / Ли Цзинвэнь, Чжун Чанбяо, Гэ Синцюань. Пекин, 2002. - С. 154.

Xitoy mutaxassislari ustuvor hisoblangan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ba’zi bir turlarini ajratib oldilar – bu bug‘doy va jo‘xorining ma’lum navlari, yog‘ning yuqori foiziga ega dukaklar, paxta, raps, shakar qamish. Sigir sutini ishlab chiqarishni kengaytirish vazifasi hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari, ya’ni olma, apelsin, mol va qo‘y go’shti, baliqchilik mahsulotlarini eksport vazifasi qo‘yildi.

Dasturni amalga oshirilishi qishloq xo‘jaligini ixtisoslashuviga, agrasektor rivoji sur’atlarini jadallashiga va dehqonlar daromadlarini ko‘payishiga ko‘maklashadi. Bu dastur don-dukaklarni ishlab chiqarish tuzilmasini va assortimentini optimallashtiruv muammosini ham hal etadi, bu esa o‘z navbatida, tovarlarni to‘planib qolinishini, sifatli mahsulotni, jumladan don mahsulotini ishlab chiqarilishining daromadliligini rag‘batlantiradi. Erlarning kichik hududida o‘z hayotiga pul topayotgan dehqonlar ayniqsa, qiyin ahvolga tushib qoladilar. Arzon go’shtning importi ham xitoy chorva xodimlarini zarar keltiradigan holatga qo‘yib qo‘yishi mumkin.

1.2.1-jadval

Mamlakatlar YIMda (PPS bo'yicha) qishlog xo'jaligining ulushi va (2010y) (% va absolut gursat.)

Mamlakatlar	YAIMda k /x v ulushi (PPS), %	g.x/ yillikishlabchikarishi mlnAGSH.doll.
Dunyo boyicha	5.7%	4245,360
E I (evropa ittifogi)	1.8%	268,380
AGSH	1.2%	176,640
XXR	9.6%	947,712
Yaponiya	1.1%	47,718
Hindiston	16.1%	651,406
Germaniya	0.8%	23,680
Rossiya	4.2%	93,618
Buyukbritaniya	0.9%	19,701
Brasiliya	6.1%	133,834
Franziya	1.8%	38,880
Italiya	1.8%	32,076
Meksika	4.2%	65,520
Koreya Respublikasi	3%	44,010
Ispaniya	2.9%	39,904
Kanada	2%	26,700
Indonesiya	16.5%	170,445
Turziya	8.8%	84,330
Avstraliya	4%	35,584
Tayvan	1.4%	11,530
Eron	11%	94,985
Polsha	4%	29,008
Gollandiya	2.6%	17,690
Argentina	8.5%	50,660
Saudiya Araviyasi	2.7%	16,808

Tayland	10.4%	60,351
Janubiy Afrika	3%	15,825
Misr	13.5%	67,622
Pokiston	21.8%	98,362
Belgiya	0.7%	2,778
Nigeriya	31.9%	117,966
Shvetziya	1.7%	6,018
Fillipin	13.9%	49,095
Avstriya	1.5%	4,989

Manba: “XXR statistik Byurosi” Pekin, 2011 y.

Xitoyning qishloq xo‘jalidagi isloxotlar, mamlakatning 600mln kishiga qashshoqlikni engishga yordam berdi»2013 yil aprel oyidagi Jaxon Bankining Vashingtondagi baxor sessiyasi “Sinxua”axborot agentligiga Jaxon Banki Prezidenti Djim En Kim. Albatta bu Xitoydagi qishloq xo‘jaligi isloxatlarning natijasidir.¹⁰

XXRning qishloq xo‘jaligida 850mln.a’xolisi band, bu Rossiya, YAponiya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Meksika jami qishloq xo‘jaliglarini a’xolisidanidan 6 marotaba ko‘pdir.¹¹

Ushbu isloxotlarga ko‘ra Xitoy mamlatlar ichida YAIM dagi PPS bo‘yicha qishloq xo‘jaligining ulushi 9,6% tashkil qildi.

¹⁰2013 йил апрел ойидаги Жахон Банкининг Вашингтон“Синьхуа”ахборот агентлиги 20.04.2013

¹¹<http://www.myshared.ru>

II BOB. XITOIY AGRAR SEKTORINING RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI

2.1. Xitoy agrar sektori rivojining zamonaviy holati

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xitoy iqtisodining muhim tarmog'i qishloq xo'jaligidir. Qishloq xo'jaligining muhim sohasi dehqonchilikdir. 2011 yilda Xitoy 500 mln. tonna tashkil qilgan don-dukakliklarning hosilini oldi, bu mamlakat arixidagi eng katta ko'rsatgichdir. Hukumat dehqonlarni hamma tomonlama qo'llab-quvvatlash siyostaini amalga oshrib, ularning hayotini yaxshilashga intilmoqda. Dehqonlar qishloq xo'jalik solig'i, jonzotlarni so'yish solig'i va alohida qishloq xo'jalik mahsulotiga soliqdan to'liq ozod etildi, bundan tashqari maxsus subsidiyalar berilishi belgilandi. Masalan, qishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadigan dehqonlar uchun subsidiyalar, seleksiya urug'larini etishtirish uchun subsidiyalar, qishloq xo'jaligi qurollari va asbob-uskunalarini sotib olish uchun subsidiyalar.

Bug'doy etkazib beruvchilarga dotatsiya hamda donni katta hajmini ishlab chiqaruvchi uezdlarga to'lovlar hajmi oshdi. Don-dukakliklarning asosiy navlariga minimal sotib olish narxlari siyosati kiritildi. Bir qator hududlarda kafolatlangan narxlar bo'yicha dehqonlardan hosilni kafolatlangan sotib olish nazarda tutilgan davlat byurtmasi kiritildi. Dehqonlarga yordamning yana bir yo'nalishi dehqonlarga kreditlarni berishni soddalashtirish va beg'araz yordamni ko'rsatish bo'ldi.

Xitoy hukumati qishloq to'lovlarining barcha 3 turini, ya'ni yig'ish fondi, qishloq darajasida ma'muriy boshqaruv fondi va ijtimoiy fondga to'lovlarni bekor qildi. Bundan tashqari, hukumat tomonidan maorif, rejali farzand tug'ish, yo'llarni qurish va ba'zi bir boshqa qo'shimcha olinadigan to'lovlarni bekor qildi. Hozirda bu barcha sarf-xarajatlar davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. SHunday qilib, Xitoy dehqonchiligi katta yutuqqa erishdi, dehqonlarning o'rta yil daromadlari oxirgi 3 yilda 8%dan ziyodga oshdi.

Dehqonlarni don-dukakliklarni ishlab chiqarishda manfaatdorligini oshirish uchun hukumat don-dukaklarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan dehqonlarga 2010 yilda 1,4 mlrd AQSH dollarini tashkil qilgan hajmda maxsus mablag'larni ajratishni qaror qildi. 2006 yilda Xitoy dehqonlari erishgan muvaffaqiyatning yana bir tarkibiy qismi bu ularni ertangi kundagi ishonchidir. 2006 yilda markaziy hukumat qishloq aholisi uchun nafaqaga deyarli 1,94 mlrd AQSH dollarini ajratdi, bu 2010 yildagidan 20%ga ko'p. Xukumat mamlakatning barcha qishloq aholisini sug'urtalashning ijtimoiy tizimi bilan qamrab olish va'dasini berdi, bu tizim o'z ichiga ijtimoiy nafaqa, ijtimoiy sug'urtalash, tibbiy sug'urtalash va xokazolarni o'z ichiga qamrab oladi.

Tibbiyot xitoy dehqonlari uchun asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda, uni hal qilish uchun hozirda kooperativ tibbiyo xizmat ko'rsatish tizimi faol joriy etilmoqda. 2010 yilning yakuniga bunday xizmat ko'rsatish tizim bilan qishloq uezdlarning 60% qamrab olindi. Mazkur tizim ishtirokchisi yiliga 10 yuan to'laydi, yana 10 yuanni mahalliy hukumat qo'shadi. Agarda dehqon kasal bo'lib qolsa, uni davolanishiga deyarli barcha sarf-xarajatlarni sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga oladi.

Xitoylik seleksioner olimlar katta ulushlarini qo'shdilar, ular don-dukakliklarning 100 lab yangi navlarini etishtirdilar. Eng katta muvaffaqiyat bu gibrid guruchdir, uning hosildorligi oddiy navlarning hosildorligi ancha yuqori bo'lib, oxirgi 25 yilda guruch hosilini 100 lab mln. tonnaga oshirish imkoniyatini berdi. Xitoy hukumati rejalariga muvofiq, 2020 yilga kelib mamlakat qishloq xo'jaligi fani sohasida iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning etishmovchiligiga qaramasdan, etakchi kuchga aylanishi lozim.

Hozirgi payt va eng yaqin yillardagi qishloq xo'jaligi rivojining ustuvorliklari quyidagilardan iborat:

- 1) qishloq xo'jaligi manfaatlaridan kelib chiqqan holda siyosatni mustahkamlash, yaxshilash, jadallashtirish;

- 2) qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini kafolatlangan tarzda etkazib berish va dehqonlar daromadlari o'sishiga faol ko'maklashish;
- 3) qishloq xo'jaligida infratuzilmaviy qurilish ustuvorligi va mazkur sektor ishlab chiqarish shart-sharoitlarini takomillashtirishni jadallashtirish;
- 4) qishloq xo'jaligi rivojida fan, texnika va inson resurslari rolini kuchaytirish hamda umumlashtirilgan xizmatlarni hamma tomonlama rivojlantirish.

2010 yilda Xitoy hukumati qishloq xo'jaligiga moliyaviy yordam ko'rsatishni mustahkamlashda davom etdi. 2007 yilda qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga bevosita umumiy subsidiyalar 59 mlrd AQSH dollarini tashkil qildi, 2011 yilning xuddi shu davriga nisbatan 63%ga oshdi. Xitoy qishloq xo'jaligi vazirligi 2007 yilda hayotga zamonaviy qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan "10 ta dastur"ni hayotga tatbiq eta boshladi. 2010 yilga belgilangan maqsadlar dehqonlarning sof daromadi 5%ga oshishi, don-dukaklarni yalpi hosili esa 2006 yildan kam bo'lmasligini nazarda tutgan edi.

2010 yilda don-dukakliklarni ishlab chiqarish mamlakatda 500 mln. dan oshdi, 2006 yilda esa 497 mln. ishlab chiqarilgan edi. Vazirlik analitiklari aholi kishi boshiga donning yillik iste'molini asta-sekin pasayishini ta'kidlamoqdalar – 1996 yildagi 412 kgdan 2006 yildagi 378 kggacha.


Xitoy dunyoda sabzavotlarni eksport va mevalarni ishlab chiqarish hajmi bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Oxirgi yillarda mamlakatlarda sabzavot o'simliklari ekiladigan maydonlar ahamiyatli darajada kengaydi. Agarda 1996 yilda ularning umumiy maydoni 11 mln. gektarni tashkil qilgan bo'lsa, 2006 yilda u 15 mln. gektarga etdi. Sabzavotlarni ishlab chiqarish hajmi nafaqat ichki talabni qondirishga, balki ularning eksportini oshirishga ham imkoniyat beradi. 2007 yilda yirik va o'rta shaharlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 667 ta ulgurji bozorlarida mahsulotlarni sifat va xavfsizligining monitoring mexanizmi yaratildi.

Meva bog'larining umumiy maydoni 1996 yildagi 9 mln. gektardan 2010 yilda 10 mln. gektargacha oshdi, mazkur davrda meva hosilining hajmi 46,53 mln. tonnadan 95,99 mln. tonnagacha oshdi. Hozirgi paytda Xitoyda mevalarni ishlab

chiqarish hajmi dunyoda ishlab chiqariladigan mevalarning hajmini 17%ni tashkil qiladi. 2007 yilda Ichki Mongoliya avtonom hududidagi dengiz mahsulotlarining yalpi ishlab chiqarishi 94 ming tonnaga etdi, ya'ni 8%ga oshdi. Baliqchilarning sof o'rta daromadlari 749 AQSH dollarini tashkil qildi, ya'ni 10%ga oshdi.

2010 yilda Xitoyda baliqchilik barqaror rivojlanmoqda, Xitoy bozorida dengiz mahsulotlarining keng assortimenti taqdim etilgan, dengiz mahsulotlarga narxlar barqaror bo'lib qolib, savdo ayriboshlashi oshmoqda. Mazkur sohada ishlab chiqarishning yalpi hajmi 2007 yilda 69,4 mlrd AQSH dollariga teng bo'ldi.

Ichki Mongoliyada baliq xo'jaligining tezkor rivojlanishiga mahalliy va davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordam ham ko'maklashadi. Faqatgina 2007 yilda davlat 568 ta baliq kema egalariga dotatsiya ko'rinishida 158,3 mln. AQSH dollarini ajratdi, qishloq xo'jaligi vazirligi tumanda baliq xo'jaligi infratuzilmasini qurilishiga 1,7 mln. AQSH dollaridan ziyod mablag' ajratdi. 2008 yilda ishda asosiy urg'u chorvachilik va baliqchilik sohasida qonunchilik bazasini boshqaruviga berildi, bu erda gap asosan, dengiz mahsulotining sifati va xavfsizligini kafolatlash hamda tashqi dunyoga ochiqlik va mazkur sohada xalqaro hamokrlik darajasini oshirish haqida ketadi. 2.1.1 - diagrammada 2006-2013 yillar davri XXR da qishloq xo'jaligining YAIMdagi ulushi ko'rsatilgan.



Manba: muallif tomonidan www.issras.ru/globald_science_review malumotlariga kora tuzilgan

Mamlakat aholisini o'sishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini asosiy turlarini iste'molini oshishiga olib keladi. 2008 yilda asosiy vazifa deb, vazirlik mamlakatda don-dukaklik o'simliklarni ekin maydonlarini kengaytirish hamda hosildorlikni o'stirish hisobiga yanada oshirishni belgiladi.

Markaziy Evropa axborot guruhi tahlilchilarining ma'lumotlariga ko'ra, bug'doyga bo'lgan jahon yuqori talabi joriy mavsumda Xitoydan un eksportini keskin oshishiga olib keladi. Xususan, turli baholarga ko'ra, mamlakat 2007-2008 yillarda 0,7dan 1 mln. tonnagacha un eksport qiladi, bu eksport asosan Janubiy-sharqiy Osiyo mamlaktalari, ya'ni Filipin, Vetnam, Indoneziyaga etkaziladi.

Xitoy rivojlangan unga ishlov berish tarmog'iga ega. Bundan tashqari joriy mavsumdagi bug'doyning ulkan hosili bug'doy unining katta hajmini ishlab

chiqarish va eksport qilish imkoniyatini beradi. Ammo un eksportyorlari hukumat bug'doy eksportiga cheklanish kiritishidan xavfsiraydilar, chunki 2007 yilda Xitoy bozorida bug'doy va unga hamda boshqa oziq-ovqat tovarlarga narxlar yuqori darajada o'sishi kuzatildi. 2008 yilda Xitoy xuddi shu chegaralarda don-dukakliklar hosili hajmini ta'minlab berdi va aholini qishloq xo'jalik mahsulotining asosiy turlari bilan etarli darajada ta'minlash uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. 2007 yilning 2 yarmi yilligidan boshlab, Xitoyda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, jumladan, cho'chqa go'shti va oziq moylariga narxlarning tez o'sishi kuzatildi. Bu mazkur mahsulotlarga jahon narxlarini oshishi hamda Xitoyda ishchi kuch tan narxining ko'tarilishi va urbanizatsiya jarayonini jadallashishi bilan belgilanadi.

Xitoydagi qishloq xo'jalik mahsulotiga bo'lgan narxlarni barqarorlashtirish uchun ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda taklifni ko'paytirish asosiydir. 2008 yilda qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq hududlariga don-dukak, yog'-moy o'simliklar va cho'chqa go'shtini ishlab chiqarishda faol yordamni ko'rsatdi, bu qishloq xo'jalik mahsulotiga ichki narxlarni haddan ziyod tez o'sishini to'xtatish uchun amalga oshirildi.


Qishloq xo'jaligi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1990 yillarning oxiridagi holatga ko'ra, Xitoy ishlov beriladigan erlarning 95 mln. gektariga ega edi. Ba'zida bir er maydonidan 2 yilda 3 va undan ko'p hosil olinadi, Yanszi daryosi basseynida esa, yilliga 2 marta hosil olinadi. Janubiy Xitoyda ko'p dalalar asosiy qishloq xo'jalik o'simliklarining yiliga 3 marta hosilini yoki sabzavotlarni 5 marta hosil beradi.

Mamlakatning ulkan hududi va iqlim sharoit er va relefning xilma-xilligi turli agroeko tizimlarni shakllanishi sabab bo'ldi. xitoyda 50 xildan ziyod dala, 8 xildan ziyod tamorqa va 60 xildan ziyod bog' o'simliklari etishtiriladi. Xitoyning chekka G'arbiy hududlarining tog'li joylari hamda Sinszyan Uyg'ur avtonom rayoni va Tibbetning keng cho'llari yirik chorva, ot, qo'y va echkilarni etishtirish uchun ishlatiladi, Sinszyanning sahro hududlari esa tarvuz, uzum etishtirish uchun

ishlatiladi. Sovuq SHimoliy Xeylunszyan va Szilin provinsiyalari don-dukakli (jo‘xori, bug‘doy, soya) mahsulotlarni yuqori mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishida etakchi rolni o‘ynaydi. SHimoliy Xitoyda, jumladan Xebey provinsiyasining G‘arbiy qismi va SHansi, SHensi va Gansu provinsiyalarida tekislik va tog‘ hududlarida suvning surinkali etishmovchiligi bilan kurash sharoitlarida quruqlikka qarshi chiqa oladigan o‘simliklar (bug‘doy, jo‘xori, tariq) larni tekazadilar.

SHimoliy Xitoy teksiligida (Xebey provinsiyasining Janubiy qismi, Xenan provinsiyasi va SHandun, Szyansu va Anxoy provinsiyalarining qismi) ishlov beriladigan erlar don-dukaklik va yog‘-moy o‘simlik hamda tamakining yiliga 2 hosilini beradi. U erda hech qanday cheklovlersiz sug‘orish uchun er osti suvlar (jumladan, quduqdagi suvlar) ham ishlatiladi. 2.1.2-diagrammada 2007-2013 yillarda Xitoy qishloq xo‘jaligidaaxali bandligi ko‘rsatilgan.

2.1.2-diagramma



Manba: muallif tomonidan 中国国家统计局 malumotlariga ko‘ra tuzilgan.

Xitoyda olinadigan qishloq xo'jalik mahsulotining yalpi hajmi bo'yicha eng mahsuldor deb YAnszi daryosi quyi oqimidagi vohta Sichuan va Guandun provinsiyasi hisoblanadi. Yiliga bir necha hosilni olish, sug'orishdan foydalanish va o'g'itlarni keng qo'llash bu erda me'yorga aylandi. Xunan, Sichuan va Szyansu provinsiyalari mamlakatdagi eng yirik guruch ishlab chiqaruvchi provinsiyalardir. SHakar qamishning aksariyat qismi Guandun va Guansi provinsiyalarida etishtiradilar. Xitoynig subtropik hududlarida asosan eksportga mondarin, apelsin, lidji va ananaslarni etishtiradilar.

1952 yildan 1957 yilgacha bo'lgan davrda qishloq xo'jaligi o'simliklarining umumiy maydoni 11 % oshdi, biroq keyin qishloq xo'jalik erlarini intensiv ishlatilishi va ulardan bir necha hosil olinishi tufayli ma'lum darajada qisqardi. SHu tarzda haydaladigan erlarni yo'qotish va ekinlar maydonini qisqarishi intensivlik tuayli qoplandi. 1957 yildan boshlab, 1957 yilgacha bo'lgan davrda barcha dondukalki mahsulotlarning o'rta hosildorligi ahamiyatli o'sdi: buhdoy 5barobar, jo'xori 4 barobar, guruch 3 barobar. Hosildorlikning o'sishi asosan, 1975 yildan so'ng azot o'g'itlari ko'proq qo'llanganligi sabab kuzatildi. Hozirgi paytda Xitoyda o'rta hisobda ekin maydonining 1 gektariga 240 kgdan ziyod o'g'itlar solinadi.

1970 yillarda Xitoy xorijdan mochevinani ishlab chiqarish bo'yicha 12 tadan ziyod zamonaviy kimyoviy zavodlarni sotib oldi. Asosan, uglekisliy amoninni ishlab chiqaruvchi samaradorligi pastroq o'zining, ya'ni Xitoyning korxonalari bilan birgalikda bu zavodlar 1992 yilda deyarli 16 mln. tonna azot o'g'itlarini ishlab chiqdi, bu esa Xitoyni o'simliklar ozig'ining mazkur asosiy unsurining eng yirik ishlab chiqaruvchisiga aylantirdi.

Xususiylashtirish natijasida kommunalardagi er oilalar o'rtasida taqsimlandi va oila pudrati asosida bu erga ishlov beriladi. Dastlab, erlar qisqa muddatga (1-3 yilga) ijaraga berildi, biroq uzoq muddatli egalik qilish tizimi kiritildi (50 yil va undan ziyod). Nazorat raqamlari dastlab pasaytirildi, so'ng esa to'liq bekor qilindi.

Don va go'shtga narxlarda bir qator to'g'rilashlarni amalga oshirish mehnat ishlab chiqarishini oshirish uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida xizmat qilib, ekinlar tuzilmasida ahamiyatli o'zgarishlarga olib keldi. 1957 yilda Xitoyda don-dukakliklarning yalpi hosili 492 mln. tonnani tashkil qildi, jumladan, guruchning hosili 185 mln. tonnaga yaqin bo'ldi. Oziq-ovqat o'simliklar ichida muhimligi bo'yicha 2 o'rinda bug'doy turadi, uni SHimoliy, SHimoliy-sharqiy, SHarqiy va Janubiy Xitoyning tekisliklarida etishtiradilar. Jo'xori hosildorligi bo'yicha (105 mln tonna) Xitoy AQSHdan keyin 2-o'rinda turadi. Boshqa oziq-ovqat o'simliklari orasida tariq, so'li, gaolyan, grechka, sabzavotlardan kartoshka, batat, soya etishtiriladi. Bundan tashqari Xitoy choyni ko'plab navlarini ishlab chiqarishda yirik ishlab chiqaruvchidir.

Texnik o'simliklardan muhim o'rinni paxta egallaydi (erlarning 40% da paxta ekiladi, 1997 yilda 4,3 mln. tonna paxta etishtirildi). Bundan tashqari, lyon, jut, kanop, tamaki (dunyoda eng katta hosil olinadi) ham etishtiriladi. YOg'-moy o'simliklari orasida er yong'oq, kunjut, kungaboqar etakchilik qiladi. 1997 yilda yog'-moy o'simliklarning hosili 21,5 mln. tonnani tashkil qildi. SHakar o'simliklari orasida shakar qamish va shakar lavlagi ustuvorlik qiladi, mevalar ichida esa sitrus, ananas, banan, mango, olma, nok etakchilik qiladi. 1980 yillar davomida yog'-moy o'simliklar va mevalarning hosili 2 barobarga oshdi, shakar qamish va tamakining hosili esa xatttoki 3 barobarga ko'paydi.

Qishloq xo'jalik faoliyatida yemlarni yetishmasligi va yaylov yerlarining cheklanganligi sababli an'anaviy tarzda 2 darajali o'rinni egallagan chorvachilik jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Cho'chqalarning soni (1995 yilda 442 mln. bosh) bo'yicha Xitoy dunyoda 1-o'rinni egallaydi. Xitoyning asosiy go'sht mahsuloti bo'lgan cho'chqa go'shtini ishlab chiqarish 2 barobariga ko'paydi. 1995 yilda Xitoyda 158 mln. bosh yirik chorva va 277 mln. qo'y va echki boshi bor edi. 1997 yilda 53,5 mln. tonna go'sht ishlab chiqarildi. 1999 yillarning boshida Xitoyda etishtirilgan don-dukakliklarning 20%ga yaqini chorvaga em sifatida ishlatilar edi.

5-diagrammada qishloq xo‘jalik o‘simliklarning ekin maydonlari aks etilgan. Bu erda etakchi o‘rinda don o‘simliklari 1-o‘rinni egallaydi, 156, 266 mln. gektardan ular 70%ni, qolganlar 20%ni, yog‘-moy o‘simliklar 8,2%ni, paxta esa atigi 3%ni egallayapti.

Qishloq xo‘jalik o‘simliklarining ekin maydonlari

2.1.3-diagramma



Manba: <http://www.stats.gov.cn> (13.01.2014).

Xitoyda 4000 yil davomida pillachilik mavjud. Janubiy va Sharqiy hududlarda tut ipak qurtini ko‘paytirsalar, SHimoliy-sharqiy Xitoyda dub daraxti ipak qurti etishtiriladi.

Hozirgi paytda Xitoy o‘zini asosan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlasada, oziq-ovqatni keyingi ishlab chiqarish istiqboli optimistik emas. Aholi soni o‘sishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni oshirishga bo‘lgan talab saqlanib qoladi, em mahsulotlariga bo‘lgan talab emas, o‘g‘itlarni ishlab chiqarishni kengaytirish zaruriyati, sug‘orishga suv hajmlarini ko‘paytirishni va qishloq xo‘jaligida ishlatilishi mumkin bo‘lgan erlarning cheklanganligiga duch

keladi. gʻarbiy mutaxassislar bergan hisoblariga koʻra, XXI asrda Xitoyning import doniga boʻlgan yillik ehtiyoji 55 mln. tonnadan 175 mln. tonnagacha boʻladi.

Baliqchilik. Baliqlarning koʻp turlarini chuchuk suvli havzalarda sunʼiy koʻpaytirish Xitoy xoʻjaligida doimo muhim oʻrinni egallagan. Islohotlar baliqchilikning anʼanaviy uslublarini tiklanishi va modernizatsiyasiga koʻmaklashdi. Natijada chuchuk suvli suv havzalarining mahsuloti deyarli 4 barobar oshdi, dengiz mahsulotlarini etkazib berish ham oshdi. Dengiz boʻyi joylarda baliq, krevetka, molyusk va suv oʻtlari etishtiriladi, bundan tashqari baliqni etishtirish uchun guruch maydonlari ham ishlatiladi. 1990 yillarning oʻrtasida baliqni tutish va dengiz mahsulotlarini etkazib berish boʻyicha Xitoy jahonda 1-oʻrinda edi (21,1 mln tonna).

Qishloqdagi islohotlar. Xitoydagi islohotlar aslida qishloq xoʻjaligini jamoa tasarrufidan chiqarish bilan boshlandi. SHuni taʼkidlash lozimki, u etarli darajada rejasiz amalga oshirildi. 70-yillar oxiridagi rasmiy qarorlar qishloqda mavjud boʻlgan xoʻjalik yuritish shakllarini maʼlum ratsionallashuvini nazarda tutgan. Ammo aslida mamlakat rahbariyatini islohot oʻtkazishga qilingan daʼvatlari qishloqdagi ishlab chiqarish munosabatlarida koʻchki kabi oʻzgarishlarga olib keldi. 50-yillar oxirida mavjud boʻlgan “xalq kommunalari” tizimini barbod boʻlishi shu tarzda tez kechdiki, hukumat bu jarayonga boshchilik qilishni afzal koʻrdi.

Er maydonlari dehqon xoʻjaliklariga oila pudrati huquqida ijruga berildi. Endilikda dehqonlar hosilning maʼlum qismini davlatga aniq narhlar boʻyicha berishi, qolgan mahsulotdan esa oʻz xohishlariga koʻra foydalanishlari mumkin edi. Oila pudratining muddatlari 80-yillarning boshida odatda, 3-5 yilni tashkil qilgan boʻlsa, birozdan soʻng ularni 15 va bundan ziyod yilga uzaytirishga ruxsat berildi. Agarda 1980 yillarning oxzirida oila pudratining tizimi Xitoy dehqon xoʻjaliklarining 20%ni qamrab olagn boʻlsa, 1983 yilda – 94,2%, 1984 yilda esa – 96,5%ni qamrab oldi.

Qishloqda amalga oshirilgan islohotlarning samarasi tez va ijobiy boʻldi. islohotlarning birinchi 6 yilidayoq (1978-1984) Xitoydagi don-dukakliklarning yalpi hosili 304,8dan 407,3 mln. tonnagacha oshdi. 80-yillarning oʻrtalariga kelib, qishloq

xo‘jalik mahsuloti bozorlarida muvozanatga erishildi, oziq-ovqat mahsulotlari defitsiti muammosi o‘z dolzarbligini yo‘qotdi. Agarda islohotlar boshiga Xitoy aholisining $\frac{1}{4}$ qashshoqlik ortida yashab, to‘yib ovqat eya olmagan bo‘lsa, 80-yillarning 2 yarmida oziq-ovqat va kiyimga bo‘lgan minimal ehtiyojlarni qondirish muammosi qishloq aholisining 95% va shahar aholisining deyarli barchasi uchun hal qilindi.

Yana bir muhim tomoni shundaki, muvaffaqiyatli agrar islohoti industrialashuvning yangi mexanizmini harakatga keltirdi – qishloq joylarda volost va posyolka korxonalarini bevosita yaratilishi orqali industrialashuv amalga oshirildi. Kichik sanoat korxonalari hamda xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar qishloqda islohotdan oldingi davrda ham yaratilgan edi, bu davlat tomonidan alohida joylarni o‘zini-o‘zi ta‘minlash siyosatini amalga oshirilishining tarkibiy qismi edi.

Ammo islohotlar yerida volost va posyolka korxonalarining asosiy vazifasi tubdan o‘zgarib yangi bo‘ldi. Bu erda gap ziroatchilikda o‘ziga ish topa olmagan dehqonlarni mehnat bandligini ta‘minlash haqida ketadi. Xitoy qishloqg‘ida ortiqcha ishchi kuchi muammosi doimo mavjud bo‘lgan, ammo islohotlar yilida tovar pul munosabatlarni intensiv rivoji va ijtimoiy differensiatsiya tobora kuchaygani sari bu muammo ayniqsa, keskin xarakterga ega bo‘ldi. 80-yillarning o‘rtasida ortiqcha ishchi kuchning umumiy hajmi 250 mln. kishi deb baholangan edi. Shunisi ham muhimki, volost va posyolka korxonalarining rivojlanishi dehqonlarni busiz ham kuchli demografik bosimni boshidan kechirayotgan yirik shaharlariga migratsiya miqyosini cheklash imkoniyatini beradi; qishloq iqtisodini diversifikatsiya qilish hamda investitsiya ehtiyojlariga dehqonlarning erkin pul mablag‘larini jalb etishga asos yaratadi.

Xitoydagi volost va posyolka korxonalarining umumiy soni 1984 yilning oxiridagi 6 mln.dan 1998 yilning boshiga 24 mln.gacha oshdi, bu korxonalarda band bo‘lganlarning soni esa 52 mln.dan 130 mln.gacha oshdi. Boshqacha qilib aytganda, oxirgi 15 yilda bunday korxonalar qishloq aholisining ortiqcha mehnat resurslarining yarmini ish bilan ta‘minladi. Bu payt ichida mamlakatda 50 mingdan

ziyod yangi posyolka va kichik shaharlar barpo etildi. Hozirda volost va posyolka korxonalarining xissasiga Xitoy YAIMsining 1/3 to'g'ri keladi, ularning milliy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi deyarli 50%ga teng. Bunday korxonalarda ham iste'mol ham investitsiya turidagi tovarlarning keng spektri ishlab chiqiladi: shoyi va trikatajning $\frac{1}{2}$ qismi, charm poyafzalining $\frac{3}{4}$, g'isht va cherepitsaning 95%, sement va ko'mirning 40%i. Mamlakat eksportida volost va posyolka korxonalarining ulushi 1985 yildagi 4,5%dan 1997 yilda 38%gacha oshdi.

2.2. Xitoy agrar sektori rivojlanishining muammo va istiqbollari

Global moliyaviy inqirozni bartaraf etish bo'yicha choralarni ishlab chiqishning jadal paytida 2009 yildagit Xitoy kommunistik partiyasi MQ tomonidan nashr etilgan birinchi rasmiy hujjatda ichki ehtiyojni kengaytirish uchun eng katta potensial imkoniyatlar qishloqda mavjud deb, ta'kilangan edi. Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodini keyingi barqaror va jadal rivoji uchun tayanch ekanligi ta'kidlandi va xalq hayotini yaxshilashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish bu avvalambor, bu dehqonlarning farovonligini oshirishdir.

SHahar va qishloq o'rtasidagi ahamiyatli farqlar bilan tavsiflangan Xitoy iqtisodi tuzilmasi sharoitlarida bu farq uzoq muddat saqlanib qoladi, bozor omillari taqsimlovchi munosabatlarda o'z-o'zidan o'zgarishlarni yarata olmaydi, shuning uchun iste'mol ehtiyojini o'sishiga davlat va hukumat tomonidan aralashish orqali ko'maklashish darkordir. Bu aralashuvni amalga oshirganda davlat bir tomondan, dehqonlar daromadi o'sishiga ko'maklashsa, boshqa tomondan, dehqonlarga tushayotgan iqtisodiy yukni engillashtirib, ularga boshqa tomonda iste'mol o'sish manbalarini izlashdan ozod etish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi lozim.

I. 2009 yilda Xitoy dehqonlari faoliyatining mahsuldorligini ahamiyatli darajada oshirishlari lozim.

2008 yilda Xitoy qishloq aholisining kishi boshiga o'rta sof daromadi 4761 yuanni tashkil qildi, dastlabki yilga nisbatan 621 yuanga oshdi yoki narxlarni hisobga

olmagan holda 15%ga ko'tarildi. Ammo qiyosiy narxlarda o'sish 8%ni tashkil qildi va jadal o'sish saqlanib qolgan bo'lsada, haqiqiy o'sish 2007 yilning darajasiga nisbatan 1,5%ga pasaydi.

2009 yilda Xitoy dehqonlari daromadining 2 asosiy manbasi, ya'ni oylik maosh hamda uy fermerligi, o'rmonchilik, chorvachilik, baliqchilikdan olinadigan daromadlarni o'sishni ta'minlashda qiyinchiliklar mavjud bo'ladi. Bu jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarni quyida o'rganib chiqamiz.

1. 2011 yilda dehqonlar daromadiga avvalambor, narxlarning noqulay dinamikasi ta'sir qiladi. 2011 yilda xalqaro bozorda oziq-ovqatga narxlar bir keskin oshib, keskin pasaydi. 2008 yil dekabrining oxirida oziq-ovqatning asosiy assortimenti va yog'ga bo'lgan narx inqirozdan avvalgi davrdan nisbatan 40-50%ga pasaydi. SHu bilan birga Xitoyda don-dukaklarning yalpi hosili ahamiyatli darajada oshdi, buning natijasida ichki bozorlarda oziq-ovqatga narxlar pasaydi. Don-dukaklarga narxlar pasayishi bilan bir qatorda boshqa asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarga, ayniqsa, cho'chqa go'shtiga narx pasaydi. 2008-2011 yillarda kuzatilgan qishloq xo'jalik sohasidagi taklifning oshishi qishloq xo'jalik mahsulotiga narxlar dinamikasiga pasaytiruvchi ta'sirni o'tkazadi. Shu bilan birga aholi daromadlarining pasayishi eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, cho'chqa go'shti)ga bo'lgan ehtiyojni pasayishiga olib kelishi mumkin.

2011 yilning fevralida guruch va jo'xoriga sotib olish narxlari 2008 yil sentyabriga nisbatan muvofiq tarzda 5,1 va 11 %ga pasaydi, cho'chqa go'shtiga nisbatan 21,1%ga pasaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotiga sotib olish narxlarining pasayishi dehqonlar daromadlariga ahamiyatli ta'sirini o'tkazmoqda. Shuning uchun oziq-ovqat va boshqa asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlariga sotib olish narxlarini oshirilishi, qishloq xo'jaligi rivojiga subsidiyalarni ko'paytirilishi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini, hosildorlikni barqarorlashtirish bo'yicha muhim choralardir. Biroq, faqatgina shu choralarni qabul qilish hisobiga dehqonlar daromadlarini barqaror oshirishni ta'minlash mumkin emas. Dehqonlar daromadini oshirish va ishlab chiqarishning barqarorlashtirilishining uzoq muddatli va samarali

mexanizmini yaratish ko'p jihatdan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qo'llanadigan sanoat mahsulotiga bo'lgan narx, qishloq xo'jalik mahsulotini ayriboshlash, transportda tashish va saqlashni tashkil qilishga bo'lgan narx, taqsimlovchi chora-tadbirlarga sarf-xarajat hamda mahsulotni import va eksportiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

2. Qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan tarmoqlarda dehqonlarning bandlik imkoniyatlarini qisqartirish mazkur tarmoq korxonalarida bandlik tufayli olinadigan oylik maosh darajasiga bevosita ta'sirini o'tkazadi.

Oxirgi yillarda dehqon daromadlarini oshirishining asosiy manbai doimiy yashash joyidan tashqarida mehnat faoliyatini olib borish natijasida olingan oylik maoshlarining o'sishi edi. 2006 yilda bunday xodimlarning soni 131,81 mln. kishini tashkil qildi. Bunda o'z qishlog'idan tashqari, ammo o'z uezdi hududida 19,2 %, o'z uezdidan tashqarida ammo o'z shahri yoki tumani ichida 13,8%, o'z shahri tumanidan tashqarida, ammo provinsiya hududida 17,7% va provinsiya hududidan tashqarida ishlaganlar 49,3%ni tashkil qildilar.

Inqiroz sharoitlarida holat ahamiyatli darajada o'zgardi. 2011 yilning yanvar oyining oxirda boshqa joyda o'z ishini yoo'qotib, o'z joylariga qaytgan dehqonlar soni 20 mln.ga etdi, ya'ni dastlab o'z o'lkasidan ketib, uning chegarasi ortida ishlagan dehqonlarning umumiy sonidan 15,3% qaytib keldi.

II. 2011 yilda Xitoy asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida talab va taklifning nisbati muvozanatli bo'ladi. Bu quyidagi masalalar bilan bog'liq.

1.Strategik nuqtai nazarda Xitoy yiliga 5 mln. tonnadan ziyod don o'simliklarini yalpi hosiliga ega bo'lishi lozim.

2011 yilda mamlakatda don-dukaklarning yalpi hosili 528, 5 mln. tonnani tashkil qildi, bu esa dastlabki yildagidan 5,4%ga ko'p bo'ldi va bu ko'rsatgich tarixan eng yuqori darajada bo'ldi. xitoyda don-dukaklilarning yalpi hosili o'sishining asosiy manbalari bu novatorlik va ilmiy texnik progressdir. Bu sabablar tufayli kelajakda ham don-dukakliklarning yalpi hosilini 500 mln. tonnadan ziyodga etkazish mumkin.

2. Xitoyda bu darajaga 2015 yilga chiqish uchun barcha asoslar mavjud.

Gap shundaki, yilning boshida Xitoy Shimolida bu hudud uchun oddiy bo'lgan qurg'oqchilik kuzatilmadi, bu esa don-dukaklarni ishlab chiqarilishiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi. 2008 yilda qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarilishini oshirish natijasida yaratilgan davlat zaxiralarini o'sishini hisobga olgan holda 2009 yilda oziq-ovqat bozoridagi taklif oshadi, ammo moliyaviy inqiroz aftidan, qishloq xo'jalik mahsulotiga bozor ehtiyojini qisqarishiga olib keladi. SHu bilan birga xom neft va boshqa birlamchi xom-ashyoga narxlarni tushishi qishloq xo'jaligida ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalariga narxlarni pasayishiga olib keladi. Dehqon –ishchilarni o'z o'lkalariga qaytishlari qishloq xo'jalik sohasidagi yollanma xodimlarga bo'lgan xufiyona narxni tushishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida, sarf-xarajatlarni qisqartiradi.

Shunday iqlib, 2011 yilda qishloq xo'jalik mahsuloti bozorida talab va taklifning nisbati muvozanatli bo'ladi.

III. Hukumat dehqonlar daromadini o'sishi uchun quyidagi harakatlarni amalga oshirib kompleks choralarni qabul qilishi ozim:.

1.Qishloq xo'jaligi sohasi qishloqda infratuzilmaviy inshootlarni qurilishini kengaytirish, shu orqali keng dehqon ommalari yashash sharoitlari va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish faoliyati uchun bazani yaxshilashi lozim.

Qishloq xo'jaligini ikkinchi umumiy tadqiqotining natijasiga ko'ra, elektr-mexanika asbob-uskunalar yordamida sug'orilayotgan erlarning umumiy maydoni mamlakatdagi ekin-tekinlarning umumiy maydonining 26,6%ni tashkil qiladi, bu 1996 yildagi daraja bilan teng. Bundan o'laroq, Xitoy qishloqlarining 1/5 qismida qishloq xo'jalik maqsadida ishlatish uchun foydalanadigan suvlarning etishmovchiligi sezilmoqda (qishloqlarning 11%da sug'orish uchun suv manbalari mavjud emas.) Hozircha faqatgina qishloqlarning 18%da drinaj, sug'orish stansiyalari mavjud. 22,65 mln. dehqon xo'jaliklarida ichimlik suvini olishda ham qiyinchiliklar mavjud. Qishloqlarning faqatgina 24,5%da ichimlik suvi tozalanadi va

unga maxsus ishlov beriladi. Qishloqlarning atigi 5,8%da axlat to'planadi va unga ishlov beriladi. Qishloqlarning atigi 20,6%da xojatxonalar qayta qurilgan.

Qishloqda ta'lim infratuzitlmasi ham kuchsiz bo'lib qolmoqda. 1/3 qishloqlar bolalar bog'chasi va yashisiga ega, qishloqlarning 26%da tibbiy punktlar mavjud emas.

2011 yilda XKP MQ tomonidan nashr etilgan birinchi rasmiy hujjatda "suv, elektr, yo'l, gaz va yashash joyi" bilan bog'liq bo'lgan 5 ta vazifa diqqat markazida bo'lishi kerak deb ta'kidlangan.

Bunda nafaqat qurilishning umumiy hajmini kengaytirish, balki yirik infratuzilmaviy inshootlarni qurilishiga xususan, asosiy gidrotexnik ob'ektlar qurilishiga mablag'larni qo'yilishini oshirish haqida gap ketadi. Ko'proq mablag'larni dala irrigatsiya qurilishiga yo'naltirish lozim, ikkinchidan, xavfli va zararli suv xavzalarini tozalash va sog'lomlashtirish lozim.

Shu bilan bir qatorda, infratuzilmaviy inshootlarning kichik miqyosli, ayniqsa, qishloq hududlaridagi ijtimoiy foydalanish ob'ektlarining qurilishini kuchsizlantirmaslik kerak. Bularning barchasi qishloqning ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishiga ob'ektiv tarzda ko'maklashadi.

Birinchiidan, aholi bandligini kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Gap shundaki, davlat kapital qurilishi ob'ektlarida kapitalning organik tarkibi odatda nisbatan yuqori – bu erda ishchilarni ommaviy ishga yollamaydilar, biroq ijtimoiy foydalanishning kichik va o'rta ob'ektlari qurilishiga ko'p ishchi kuch jalb etiladi. Bu dehqonlar bandligi o'sishi va daromadlarini ko'payishiga qulay sharoit yaratadi. Ikkinchiidan, ijtimoiy investitsiyalarni oshirish xususiy investitsiyalarni oshirishga qishloq sanoat rivojining keyingi bosqchilarini amalga oshirilishiga ko'maklashib rag'batlantiradi. Uchinchiidan, dehqonlarning ishlab chiqarish va hayotiy shart-sharoitlari yaxshilanadi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish bazasi mustahkamlanadi, mehnat samaradorligi oshadi, maydon birligidan hosildorlik ko'payadi hamda boshqa resurslarni qo'llash samaradorligi ham oshadi.

2. Bozor richaglarini mustahkamlagan holda hukumat ulardan foydalanishni tartibga solish va nazoratini kuchaytirishi lozim, shu bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va dehqonlar daromadini oshirish uchun uzoq muddatli va samarali mexanizmlarni yaratishi lozim.

2011 yil oktyabr va 2009 yil yanvaridan hukumat bug'doy va guruchga bo'lgan minimal sotib olish narxlarini ahamiyatli darajada oshirdi. Biroq sotib olingan oziq-ovqat hajmini oshishi ba'zi bir joylarda uni saqlash uchun omborlar etishmasligiga olib keldi. Bundan tashqari faqatgina narxni oshirish va subsidiyalarni berish orqali don-dukaklarni etishtiruvchi dehqonlarning ahvolini yaxshilashni ta'minlash imkoniyati yo'q. Xitoy don-dukak xo'jaligini barqarorlashtirish uchun asosiy xalqa bu talab va taklif o'rtasida muvozanatsizlikni bartaraf etishdir. Buning uchun hukumat don-dukakli o'simliklarni ishlab chiqarishdagi tebranishlarni pasaytirishga qaratilgan mexanizmlarni to'liq ishlatishi, dehqonlarni xo'jalik daromadlarini barqaror o'sishini hamda oziq-ovqatga bo'lgan talak va taklif o'rtasida uzoq muddatli muvozanatni ta'minlab berish maqsadida qishloq xo'jalik mahsulotiga narxlarni pasayishdan voz kechishi lozim.

Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini yaratish lozim, hozircha u sug'urta to'lovlarni etarli darajadagi qamrashngi yo'qligi va past darajasi bilan atvsiflanadi. Qishloq xo'jalik daromadlarini tavakkallardan ozod etib, don-dukaklik ekinlarni tabiiy ofatdan sug'urtalash tizimini yaratish lozim.

3. Oziq-ovqat xavfsizligini tashkil qilish va tuzishshga bo'lgan yangi yondashuvlarga asoslangan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uzoq muddatli va samarali mexanizmni yaratish lozim.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uzoq muddatli va samarali mexanizmni yaratish uchun bizning fikrimizcha, turli qishloq xo'jalik o'simliklarini ekish, chorvachilik, qishloq xo'jalik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan dehqon xo'jaliklarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash lozim. Qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish va sotish bo'yicha maxsus kooperativlarni tashkil qilishga e'tiborni kuchaytirish, keyinchalik esa ularni

birlashma yoki xo‘jalik jamiyatlari darajasiga ko‘tarish lozim. Qishloq xo‘jalik mahsulotiga ishlov berish bo‘yicha dehqonlarning maxsus kooperativ va korxonalariga hukumat organlari bilan qishloq xo‘jalik mahsulotiga talab va taklif hajmlari va unga bo‘lgan narxlar to‘g‘risida kelishib olishga ruxsat berish lozim, ular o‘rtasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu erda gap, hukumat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotishdagi korxona va maxsus kooperativlar o‘rtasida teng huquqli hamokrlik shart-sharoitlarini yaratish haqida ketyapti.

4. Oziq-ovqat bozori holatiga tezkor javob berish mexanizmini yaratish lozim, qishloq xo‘jalik mahsuloti savdosi sohasida import va eksport siyosatini amlaga oshirishda vakolatlarni ratsional taqsimlash mexanizmlarini yaratish lozim.

Xitoy qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotish sohasidagi savdo siyostaini tartib solish dinamikasi xalqaro bozordagi vaziyat dinamikasidan sekinroqdir. Bu erda esa odatda darhol javob qaytarish muhimdir. Qishloq xo‘jalik mahsulotini import va eksportiga nisbatan mamlakatni uzoq muddatli va barqaror staregiyasi doirasida tez, jadal javob qaytarish imkoniyatlarini to‘liqroq ishlatish lozim.

5. Oziq-ovqatning ishlab chiqarish, to‘plash, import va eksportini Xitoyni energetik xavfsizligini ta‘minlash bilan uyg‘unlashtirish lozim.

Mamlakatda oziq-ovqatga ratsional bo‘lmagan talabni o‘rishini to‘xtatishga qaratilgan siyosiy ko‘rsatmalar mavjud. Vaziyatni imkoniyatli o‘zgarishiga muvofiq tarzda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini to‘plash, import va eksport qilish bo‘yicha choralardan tashqari qishloq xo‘jalik mahsulotini energiyaga qayta ishlashni tashkil qilish bo‘yicha choralarni amalga oshirish lozim, bunda qishloq xo‘jalik mahsulotini to‘plovchi, akkumulyasiya qiluvchi zaxira sifatida tushunish lozim. Bu mamlakat ichida oziq-ovqat taklif hajmining oshishi yoki pasayishi natijasida vujudga kelgan tavakkalidan qochish imkoniyatini beradi.

IV. Hukumat milliy daromad tuzilmasi va taqsimlanish shakllarini tartibga solishi lozim, dehqonlarni iste‘molni oshirish uchun boshqa joylardan imkoniyat izlashlari zaruriyatini pasaytirishi lozim.

Hukumat qishloqdagi ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasini yaxshilashga nafaqat mablag'larni qo'yishi, balki va bu undanda muhimroq, jamiyatni dehqonlarga bevosita xizmat ko'rsatish, bu xizmatlarning sifтини yaxshilashga sarf-xarajatlarni ko'paytirishi lozim. Bu esa, hozircha past daromadlarga ega bo'lgan qishloq aholisida iste'mol darajasini tez ko'tarish imkoniyatini beradi. Strategik nuqtai nazardan bu inson kapitali sifatini oshishiga, qishloqda bandlik imkoniyatlarini kengayishiga ko'maklashadi.

1. Oxirgi yillarda markaz qishloqda minimal yashash darajasini ta'minlash tizim bilan foydalandigan shaxslarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirdi.

2011 yilning avgustida davlat kengashi mamlakatda qishloqdagi minimal yashash darajasini ta'minlash tizimini yaratish haqidagi qarorni qabul qildi. Bu qarorga muvofiq, uezd, rayon, shahar va provinsiya hukumatlari mahalliy, haqiqiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda aholining minimal yashash darajasini belgilab beradilar. 2008 yilning yakuniga kelib, mamlakatning qishloq joylarida minimal yashash darajasini ta'minlash tizimidan foydalanadigan shaxslarning soni 42,843 mln.ni tashkil qildi.

Qishloqda o'rta yillik minimal yashash darajasi mamlakat bo'yicha o'rta hisobda kishi boshiga 978 yuanga ketdi, o'rta oylik minimal yashash darajasi kishi boshiga 82,3 yuanga etdi. O'rta oylik subsidiya kishi boshiga 49 yuanga etdi, bu esa, 2011 yildagi darajaga nisbatan 19 yuanga ko'paydi. 2008 yilda qishloqda minimal yashash darajasini ta'minlashga sarflangan xarajatlarning umumiy qiymati 22,23 mlrd yuanni tashkil qildi. Bunda markaziy byudjet mablag'larning qiymati 9,365 mlrd yuanga etdi, bu esa 2007 yildagi darajadan 212 %ga ko'p. Turli darajadagi mahalliy hukumat byudjetlaridan ajratilgan mablag'lar qiymati 12,865 mlrd yuanni tashkil qildi, bu esa 62,7%ga ko'proq. Qishloqda minimal yashash darajasini ta'minlash tizimi deyarli 2 yildan beri mavjud, ammo uni qoplash sohasi bo'yicha bu tizim hamda shaharliklar minimal yashash darajasini ta'minlash tizimi o'rtasida farq mavjud.

Masalan, shaharda minimal yashash darajasini ta'minlash tizimi bilan foydalangan shaxslarning soni butun mamlakatning qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan sohalardagi aholining umumiy sonining 5,6%ni tashkil qilsa, qishloqda minimal yashash darajasini ta'minlash tizimi bilan foydalangan shaxslarni soni hozircha qishloq xo'jalik sohasida band bo'lgan aholining umumiy sonining 4,9%ga teng. Qishloqda subsidiyaning o'rta kishi boshi darajasi 49 yuanga teng, bu esa shaharda minimal yashash darajasini ta'minlash tizim bilan foydalangan shaxslarning kishi boshiga o'rta oylik subsidiyasining 1/3 darajasiga tengdir.

Xitoyning o'rta va G'arbiy tumanlarida minimal yashash darajasini ta'minlash tizimi xali butun hududda tarqalmagan. Masalan, Gansu provinsiyasida, qolgan 13 provinsiyalaridek kabi 2011 yilda o'rta minimal yashash darajasi 2011 yilda belgilangan qashshoqlik darajasidan (785 yuan) past edi, buning asosiy sababi byudjet mablag'larining etishmovchiligidir. Avvalgidek, minimal yashash darajasini ta'minlash tizim bilan foydalanishga majbur bo'lgan insonlarning katta soni saqlanib qolmoqda, ammo aslida ular bu tizim bilan qamrab olinmagan. Mamlakatning o'rta va G'arbiy rayonlarida minimal yashash darajasini ta'minlashga markaziy byudjet mablag'larni ko'payishi ichki ehtiyojni bevosita rag'batlantirish imkoniyatini berib, jamiyat barqarorligini saqlanishiga ko'maklashadi.

2. Qishloqda ijtimoiy nafaqani ta'minlovchi yangi tizimga o'tishni jadallashtirish lozim. 25 provinsiya va markaziy bo'ysunish shaharlari (masalan, Pekin kabi)ga bo'ysunga 460 dan ziyod uezd (shahar, rayon, somon)larda qishloq nafaqa sug'urtalashning yangi tizimini yaratishga faol yo'llarni izlash talab qilinadi. Inson resurslari va ijtimoiy ta'minlov vazirligi "qishloq ijtimoiy nafaqa ta'minlovi yangi tizimi yaratish bo'yicha tajriba o'tkazish haqida"gi loyihani ishlab chiqdi. 2009 yildagi hukumat vazifalari haqidagi ma'ruzasida premer Ven Szyabao mamlakatning deyarli 10% uezd (shahar)larida qishloq ijtimoiy nafaqa ta'minlovining yangi tizimini yaratish bo'yicha tajriba o'tkazish lozimligini ta'kidladi.

Hozirda davlat qishloq nafaqa sug'urtalashning yangi tizimini siyosatini oxirigacha ham aniqlamadi, hozirda bu maqsadlarga zarur bo'lgan byudjet mablag'lari ajratilmadi. Turli joylarda qabul qilingan choralar hozircha shahar va qishloq nafaqa sug'urtalash tizimlarini bir-biriga yaqin bo'lishini ta'minlab bermayapti. Hozirgi paytda shahar va qishloq ishchi va xizmatchilarni asosiy nafaqa ta'minlovi tizimi qamrab olgan sug'urta qilinayotganlarning soni 219 mln.ni tashkil qiladi. qishloq nafaqa ta'minlovi tizimi bilan qamrab olingan sug'urtalanganlarning soni esa atigi 60 mln.ni tashkil qiladi, ular orasida hukumatdan mablag'lar oladigan shaxslarning soni 10 mln.dan biroz ko'proqdir. Dehqonlarning mutloq aksariyatini qariganida o'g'li boqadi.

Qishloq nafaqa sug'urtalash yangi tizimi yaratish bo'yicha davlat siyostaini tezroq belgilab olish lozim. Er va oilaga tayangan ta'minlov tizimi darajasini milliy daromadlarni qayta taqsimlashga tayangan ta'minlov tizim bilan uyg'unlashtirish lozim. Avvalambor, turli darajadagi hukumat organlarini zaruriy mablag'larni to'plash uchun javobgarligini aniq chegaralab qo'yish lozim. Markazdan rivojlanmagan iqtisodiy hududlarda qishloq nafaqa sug'urtalash yangi tizimini yaratishni qo'llab-quvvatlashga maxsus byudjet mablag'larni ajratish lozim.

3. Muhim vazifa – markaz tomonidan qishloq kooperativ davolanish yangi tizimini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

2011 yilning 3kvartalining yakuniga kelib, mamlakatning 2729 ta uezd va shaharlarida qishloq kooperativ davolashning yangi tizimi joriy etildi. Mazkur tizim qamrab olgan dehqonlarning soni 815 mln.ni tashkil qildi, ya'ni qishloq aholisining 91,5%. XKP MQsi qo'ygan maqsadga muddatdan 2 yil oldin erishildi. 2010 yildagi vazifa qishloq kooperativ davolanishning yangi tizimi qishloqning barcha aholisini qamrab olishidadir. Buning uchun hozirda 154,2 mlrd yuan to'plandi, bunda markaziy byudjet mablag'larning summasi/qiymati 27%ni tashkil qiladi, mahalliy byudjet mablag'lar qiymati 51%, dehqonlar to'lagan ulushlar 20%, boshqa manbalardan olingan pul mablag'larining qiymati 2%ga teng. Qishloq kooperativ davolash yangi tizimi fondidan ketgan xarajatlarning umumiy qiymati 42,9 mlrd

yuanni tashkil qiladi, mazkur fondan yordam olgan shaxslarning soni 370 mln.ga teng.

Ammo bu masalaning keskinligi saqlanib qolmoqda. Gap shundaki, qishloq kooperativ davolash tizimini yaratish uchun to'plangan mablag'lar hajmi etarli emasdir, dehqonlar avvalgidek, davolash uchun to'lovning og'irligini o'z zimmalariga olmoqdalar. Hozircha qishloq kooperativ davolash yangi tizimida ishtirok etayotgan dehqonlarni statsionar davolanishi uchun haqiqiy kompensatsiya atigi 38%ni tashkil qiladi. XKP MQ 17-chaqiriq 3 plenumida qabul qilingan qarorida bunday imkoniyatlar mavjud bo'lgan joylarda byudjet subsidiyalarini berish standart va darajasini oshirish lozimligi ko'rsatilgan.

4. Dehqon-ishchilarni ijtimoiy ta'minlash tizimi islohotini amalga oshirishni jadallashtirish talab qilinadi.

Hozirda Xitoyda 130 mln.ga yaqin dehqon-ishchilar bor, ularning aksariyat qismi aslida shahar va posyolka aholisi hisoblanadi. Ammo shahar ijtimoiy ta'minlov tarmog'ini shakllantirish dinamikasi juda ham sust. SHaharlarda uzoq muddat yashab ishlayotgan dehqon ishchilarni bu tarmoqqa asta-sekin kiritish lozim, ularni nafaqa ta'minlovi, vaqtinchalik ishchsizlik, davolash bo'yicha nafaqalarini to'lash va boshqa zaruriy masalalarini jadalroq hal qilish lozim.

Yaqinda inson resurslari va ijtimoiy ta'minlov vazirligi "asosiy nafaqa sug'urtalash tizimida dehqon –ishchilarni ishtirokini ta'minlash bo'yicha choralar" loyihasini ishlab chiqdi. Unda nafaqa sug'urtasi dehqon-ishchilar holatining xususiyati va o'ziga xosligini hisobga olishi lozimligi hisobga olingan. Sug'urtalash dehqon-ishchilarni ko'chishi, ijtmioiy ta'minlovni yagona rejalashtirish hududlari orqali nafaqa sug'urtalash bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ham nazarda tutishi lozimligi qayd etilgan.

V. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, chiki talablarni kengaytirish.

Xalqaro moliyaviy inqiroz Xitoy ijtimoiy, iqtisodiy rivojiga kuchli salbiy ta'sirini o'tkazdi, ammo shu bilan birga inqiroz iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va chuqurlashtirish uchun rag'bat bo'ldi. Islohotlarni chuqurlashtirish qishloqdagi

er, mehnat vositalari va resurslarini samaraliroq taqsimlash imkoniyatini beradi, ichki talabni kengaytirish va iste'molni o'stirish uchun shart-sharoitlarni yaratadi. SHu bilan birga, qishloq ijtimoiy, iqtisodiy rivojida istiqbolda gullab-yashnashga va uzoq muddatli barqarorlikka ko'maklashadi. Bu erda nima haqida gap ketganligini aniqlashtiramiz.

1. Qishloqda yer tizimi islohotini chuqurlashtirish.

Avvalambor, xaydaladigan yerlarni ishlatishda novatorlik g'oyalarni amalga oshirish lozim. Imkoniyatlar mavjud bo'lgan joylarda katta ixtisoslashgan dehqon xo'jaliklari, uy fermalari, dehqon ixtisoslashgan kooperativlarini yaratish lozim. Dehqon va xo'jalik yurituvchilarga miqyosli va industriallashtirilgan xo'jalik yuritish yo'li bilan ko'proq qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish imkoniyatini berish lozim. Qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan ob'ektlarni qurishga haydalgan yerlarni olishda tartibni o'rnatish uchun shahar va qishloqda qurilish ob'ektlarining yagona bozorini yaratishni jadallashtirish lozim. Haydalgan yerlari olingan dehqonlarning qonuniy huquq va manfaatlari himoyalaniishi lozim.

2. Qishloq moliyaviy tizimini isloh qilishni jadallashtirish.

Qishloqning moliyaviy faoliyati zamonaviy qishloq iqtisodining yadrosidir. Xitoy dehqonlik ixtisoslashgan kooperativlar kooperativ moliya yordamisiz rivojlanishi va mustahkamlashnishi juda ham qiyindir. Dehqonlik ixtisoslashgan kooperativlarni yaratilishi va kredit hamokrligi bo'yicha tajribalarni amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

3. Qishloq xo'jaligi va qishloq iqtisodi rivojiga to'sqinlik qilayotgan chuqur ziddiyatlarni bartaraf etish makroiqtisod va siyosiy tizimni tashkil qilish sohalarida islohotlarni chuqurlashtirish.

Byudjet tizimining islohoti byudjetdan tarnsfert to'lovlarga nisbatan me'yor standartlarni (gorizontal va vertikal bo'yicha) yaratilishiga ko'maklashishi lozim, bundan tashqari oddiy transfert to'lovlar ulushi ham oshirilishi lozim. Byudjetning og'irlik markazi asta-sekin quyi pastroqqa siljishi lozim. Mahalliy hukumat, ayniqsa, quyi mahalliy hukumatlar byudjetlarining hajmini sezilarli darajada oshirish lozim.

Ma'muriy boshqaruv tizimi islohotlarini chuqurlashtirish lozim, bunda turli tarmoqlar o'rtasidagi to'siqlar vujudga keltirgan kamchiliklarni bartaraf etish lozim. Vertikal boshqaruv tizimi hamda maxsus ixtisoslashgan mablag'larni u yoki bu maqsadga erishishga yo'naltirilgan tizimi turli soha resurslarini birlashtirishi, pul mablag'larini ishlatilishi samaradorligini oshirishi, joylardagi dehqon ommalarining eng kerakli ehtiyoj va talablarini haqiqatdan qondirishi lozim. Quyi hukumat tizimida demokratlashuvni rivojlantirish lozim. Bundan tashqari, resurslarni taqsimlashda va foydalanish huquqini amalga oshirishda nazorat, to'xtatish, muvozanatni saqlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari, turli darajadagi hukumatlarga nisbatan so'rov, nazorat, to'xtatish, jazolash va muvozanatni saqlash tizimlarini takomillashtirish lozim, kadrlarni attestatsiya qilish va o'sish tizimini isloh qilish.

Mazkur islohotlarni amalga oshirish yo'li bilan proteksionizmni qisqartirish, resurslarni taqsimlashda sub'ektivlikni pasaytirish, birovni hisobiga yashash va boshqa salbiy hodisalarni bartaraf etish mumkin, bundan tashqari, transfertlar hisobiga asosiy bepul xizmatlarni ko'rsatishda turli-tumanlarni byudjetini muvozanatlashga bo'lgan qobiliyatini oshirish mumkin. Mamlakatda ichki talabni kengayishi va dehqonlar daromadni oshishini ta'minlab beruvchi mustahkam adolatli tizimni barpo etish lozim.

2.3. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlarning natijalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligi haqida guldagi ma'lumotlarga ega bo'ldik.

2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga

nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi. Izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi. Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.¹² Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda. Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.¹³

Mustaqillik yillarida muhtaram Prezidentimizning tashabbusi va bevosita rahnomoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikava ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. Cheklangan

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2014


¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2014

yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.

Respublikamiz agrar tarmog‘ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar natijasida qishloq xo‘jaligining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari barqaror o‘sib bormoqda.

2.3.1-diagramma

Respublikada qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, (foizda)



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi

O‘tgan 2013-yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko‘rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g‘alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi. Qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo‘lga qo‘yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o‘ynadi. Bugungi fermer xo‘jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o‘z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo‘lgan, yuksak

samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlaraimizning tayanch ustunidir.

2.3.2-jadval

O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, kg

Mahsulotlar turi	1991 yil	2011 yil	2011 yil 1991 yilga nisbatan, foiz da
Meva	24,0	60,1	250,4
Uzum	24,0	35,1	146,2
Sabzavot	138,6	225,0	162,3
Kartoshka	15,1	60,5	400,6
Poliz	39,0	42,0	107,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

Ko'ptarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilishishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda.

Yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, yer va suv resurslari bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligini intensive asosda rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak samarali zamonaviy agro texnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanish, eng muhimi – dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash, desam, o'ylaymanki, barchangiz mening fikrimga qo'shilasiz.

Faqat yerga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish – bu


qishloqni va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha biztanlagan yo'ldir.

2008-yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yer osti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.

O'tgan yili 2013-2017-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturini qabul qildik. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, barcha manfaatdor idoralar, Fermerlar kengashi va avvalambor fermer xo'jaliklarining o'zi ushbu dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashi darkor. Vazirlar Mahkamasi mazkur dastur ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatish.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, 2003-2011 yillarda respublikamizda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosi va g'alla yetishtiruvchi qishloqxo'jaligi korxonalariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar qiymati 2003 yildagi 309,1 milliard so'mdan 2011 yilda 1 598,8 milliard so'mga oshdi.

O‘zbekistonda 2003-2011 yillarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g‘alla yetishtiruvchi qishloq xo‘jalik korxonalariga ajratilgan imtiyozli kreditlar, million so‘mda



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi 18.01.2014

Tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkasi tijorat kreditlari foiz stavkasidan 2-3 barobar past bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida fermer xo‘jaliklari faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash siyosatining natijasidir va fermerlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Soliqqa tortish va soliq to‘lash mexanizmini soddalashtirish maqsadida mamlakatimiz Prezidentining Farmoni bilan fermer xo‘jaliklari tomonidan to‘lanadigan to‘qqizta soliq turi o‘rniga 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun yagona yer solig‘i joriy qilingan bo‘lib, u har tomonlama qulaylikka ega. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida qishloq xo‘jaligi sohasida bir qator soliq va bojxona imtiyozlari qo‘llanadi:

- Yangidan tashkile tilgan, paxta, g'alla, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa mahsulotlar yetishtiradigan fermer xo'jaliklari 2 yil muddatga, bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari 5 yil muddatga yagona yer solig'i to'lashdan ozod etildi;
- Fermer o'z hisobidan o'zlashtirgan yer uchun besh yil davomida yagona yersolig'i to'lashdan ozod qilindi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 martdagi 304-sonli qaroriga asosan, xorijiy texnikalari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona to'lovlari hamda chetel texnikalar uchun ehtiyot qismlar olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'idan ozodetilgan;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 martdagi 308-sonli qaroriga muvofiq, chetellardan chorvamollari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovaridan ozod etilgan.

Fermer xo'jaliklari texnika vositalarini imtiyozli shartlar bo'yicha lizing asosida harid qilishi uchun texnika boshlang'ich narxining 15 foizini to'lab, qolgan 85 foizini 10 yil muddat ichida to'lash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunda lizingdan foydalangani uchun yillik foiz to'lovlari Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmaydigan qilib belgilandi.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan **narx islohoti** qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narx belgilashda erkin bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriyetishga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 avgustdagi «Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to'g'risida»gi PF-3114-sonli farmoniga asosan, davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xomashyosining narxini jahon bozoridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-sonli qaroriga muvofiq, 2009 yilda davlat byudjeti parametrlarida eksportga sotiladigan paxta tolasi bo'yicha 20 foizlik qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) to'lashdan paxta tozalash korxonalari ozod etildi, natijada shu miqdorda

fermerlarga paxta uchun to'lanadigan xarid narxlari oshirildi. Shu orqali davlatimiz tomonidan paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini va tayyorlov korxonalarini rag'batlantirish ko'zda tutilgan bo'lib, paxta tolasining ichkinarxlarini jahon bozoridagi narxlarga tenglashtirish choralari ko'rilmogda. Shu bilan birga, bugungi kunda jahon bozorida paxta tolasini narxlarining birmuncha yuqori ekanini inobatga olgan holda, narx bo'yicha yuzaga kelgan ijobiy farqning 25 foizini fermer xo'jaliklariga to'lab berish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2011 yil davomida fermerxo'jaliklariga yo'naltirilgani ijobiy farq summasi 403 315million so'mni tashkil etdi. Bu holat jahon bozorida qulay kon'yuktura vujudga kelgan yillarda fermer xo'jaliklarining barqaror daromad olishi uchun imkoniyatlar ochadi.

Davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxlarini esa mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi. Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlari bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda, shartnoma asosida belgilanmoqda.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulayshart-sharoitlar yaratish maqsadida hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun mablag'lar ajratish amaliyotda qo'llanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 5 noyabrdagi "Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-725-sonli qarorida fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga samarali va amaliy davlat madadini ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari nimoliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar ajratish, Moliya vazirligiga har yili Davlat byudjeti

loyihasini shakllantirishda mazkur maqsadlarga yer solig'i bo'yicha tushumlar hisobidan mablag'lar ajratish vazifasi yuklatildi.

Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasi tobora katta rol o'ynamoqda. Biz o'tgan yilning boshida 2013-2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturini tasdiqladik. 2013-yilda xizmat ko'rsatish bo'yicha 13 mingdan ortiq korxona, jumladan, savdo-maishiy komplekslar, minibanklar va sug'urta kompaniyalari filiallari va boshqa korxonalar tashkil etildi.

2013-yil yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 foizga, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2000-yildagi 37 foizdan 53 foizga o'sdi.¹⁴

Bu raqam va ko'rsatkichlar mamlakatimiz xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda taraqqiy topgan ko'pgina davlatlar darajasiga tobora yaqinlashib boryapti, deb aytishga asos beradi.

¹⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2014

XULOSA

1. Xitoy xalq respublikasi mavjudligi yillarida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish tizimi modernizatsiyalash hamda uning sohalarini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar yo'nalishlarida ahamiyatli o'zgarishlarni boshidan kechirdi.
2. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida Xitoy qishloq xo'jalik tuzilmasini chorvachilik, sabzavotchilik, meva mahsulotlarini oshirish tomoniga o'zgarayotgan tuzilmasi fonida qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarilishining yuqori ko'rsatgichlarga erishdi va shu bilan bir qatorda, don ishlab chiqarishning ustuvor rivojlanishini qo'llab-quvvatlab saqlab qola oldi.
3. Jahon qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash tuzilmasining tahlili qishloq xo'jaligi mahsulotini asosiy ishlab chiqaruvchi mamlakatlarining YAIMsida uning ulushiga nisbatan turli yo'nalishdagi tendensiyalarni ko'rsatib berdi – ya'ni, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qisqarish, Xitoyda esa ko'payish, bular Xitoyda qishloq xo'jaligini iqtisodning ustuvor sohasi sifatida ajratish natijasida bu mamlakatda agrar proteksionizmini tobora oshib borayotgan miqyoslari haqida dalolat beradi.
4. Xitoy qishloq xo'jaligini umumiy qo'llab-quvvatlash tuzilmasida 10 yillik davrida qishloq xo'jalik mahsulotiga ichki narxlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralar ulushi va ishlab chiqaruvchilarga to'lovlar hajmi oshdi, shu bilan bir qatorda umumiy xizmatlarni qo'llab-quvvatlash ulushi qisqardi. Ammo iqtisodiy rivojlangan mamlaktalar bilan qiyoslanganda Xitoyda savdo shartlarini o'zgartirmaydigan qishloq xo'jalikni qo'llab-quvvatlashning choralari ustuvorlik qiladi.
5. Xitoy BSTga a'zo bo'lib, ega bo'lgan bir qator afzalliklar, ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish va eksportini o'sishi, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar daromadlarini oshishi bilan bir qatorda mamlakatni jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvining salbiy oqibatlarini aniqlandi. Bular qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari importining o'sishi, ijtimoiy muammolar hamda

yer zamini digradatsiyasi va oziqlanishining pasayishi hamda suv zaxiralarining ifloslanishi bilan bog'liq bo'lgan ekologik holatni keskinlashuvi.

6. Qishloq xo'jaligiga investorlarni jalb etish maqsadida qishloq xo'jaligida soliq solishni differansiatsiyalash yo'nalishida sohaga soliq yukini pasaytirish taklif qilinadi. Xitoyda posyolka volost korxonalarini yaratish tajribasi agrar kompleksda kooperativ sektorni shakllantirishning muhim unsuridir, mamlakatda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilish davridan boshlab, u o'z samaradorligini ko'rsatdi. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi tobora oshib borayotgan sharoitlarda mazkur yo'nalish Xitoy-O'zbekiston amaliyoti uchun juda ham dolzarbdir, chunki u qishloq joylarida yordamchi ishlab chiqarish va sohalarni, jumladan, agroturizm, xalq hunarmandligi, yovvoyi o'sadigan xom-ashyoni qayta ishlash, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va qishloq qurilishini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI VA PREZIDENT ASARLARI

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- 1.2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O'zbekiston”, 2011.
- 1.3. Karimov I.A. Jahon moliyaiy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: "O'zbekiston", 2009. - 11-bet.
- 1.4. Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. – Т.: Узбекистон, 1997.-С.275-276
- 1.5. Каримов И.А. *“Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш — тараққиётимизнинг муҳим омилидир”*.Президент Ислом Каримов ЎзР Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси.07.12.2010 й. www.press-service.uz
- 1.6. Выступление Президента Республики Узбекистан И.А.Каримов на саммите ШОС. Ташкент. 2010.
- 1.7. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор иқтисодиётига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т.: “Ўзбекистон”. 1993. – 128 б.

2. Maxsus adabiyot va darsliklar

- 2.1 Жуджунь Дин, Ковалев М.М., Новик В.В. Феномен экономического развития Китая: Мн.:Издательский центр БГУ, 2008.-446 с.
- 2.2 Ли Цзиньвэнь, Роль государственного регулирования в реформировании и развитии экономики Китая. Доклады ИЭИ ДВО РАН, 2008.
- 2.3 Чжоу Минвэй, Китай, Издательство литературы на иностранных языках, Пекин, 2009
- 2.4 Чжань Сяошань Сельское хозяйство и аграрный сектор экономики Китая в условиях мирового финансового кризиса *журнал «Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз» №8 2009.
- 2.5 Сунь Хаожан. Повышение эффективности интенсификации производства риса в Китае: автореферат. Москва, 2005.
- 2.6 Сяопин Д. Основные вопросы современного Китая/ Перевод, с кит. -М.: Политиздат, 1988. 256 с.
- 2.7 Ливэй, Л. Некоторые вопросы модернизации банковской системы КНР на современном этапе / Л. Ливэй // Деньги и кредит. 2004. - №11. - С. 71-73.
- 2.8 Милосердов, В.В. Государственное регулирование и поддержка сельского хозяйства / В.В. Милосердов // Режим доступа: <http://vladimir.miloserdov.name/articles/page-30.html>
- 2.9 Милосердов, В.В. Нужен закон о продовольственной безопасности / В.В. Милосердов // РФ сегодня. №24. - 2007. - Режим доступа: <http://www.russia-today.ru/2007/no24/24economics2>.
- 2.10 Министерство коммерции КНР: Китай намерен расширять экспорт сельхозпродукции // Международное радио Китая. 01.02.2007. - Режим доступа: http://russian.cri.cn/256/2007/02/01/1_@158712.htm

- 2.11 Назаренко, В.И. Аграрная политика и сельскохозяйственное производство КНР: Обзорн. информ./ В.И. Назаренко. ВНИИТЭИагропром. - М., 2000.1. С. 15-21,50-64.
- 2.12 Назаренко, В.И. Россия и зарубежные страны. Модели аграрной политики / В.И. Назаренко. М.: Памятники ист. мысли, 2008. - 476 с.
- 2.13 Назаренко, В.И. Государственное регулирование сельского хозяйства в странах с развитой экономикой / В.И. Назаренко, А.Г. Папцов. М.: Информагробизнес, 1996. - 84 с.
- 2.14 Наумов, И.Н. Стратегия экономического развития КНР в 1996-2020 гг. и проблемы ее реализации / И.Н. Наумов. М.: ИДВ РАН, 2001. - 200 с.
- 2.15 Новые расходы по ЕСХН // Информационное агентство «Клерк.Ру». - 06.03.2006. Режим доступа: <http://www.klerk.ru/news/744478>
- 2.16 Ольховикова М.Ю. Плюсы и минусы единого сельхозналога / М.Ю. Ольховикова // В курсе правового дела. — №10. 2007. - Режим доступа: <http://www.vkursedela.ru/article 1172/>
- 2.17 Ответы премьера Госсовета КНР Вэнь Цзябао на вопросы китайских и иностранных журналистов на пресс-конференции // Генеральное консульство КНР в г. Санкт-Петербурге. Режим доступа: <http://saint-petersburg.china-consulate.org/rus/dtxw/tl87804.htm>.
- 2.18 Отменен возврат НДС при экспорте зерновых культур // Консалтинговая группа «Окно в Китай». 21.12.2007. - Режим доступа: <http://www.chinawindow.ru/7/ru/news/vatgraincancel>
- 2.19 Папцов, А.Г. Государственное регулирование сельского хозяйства (современные тенденции в отечественной и зарубежной практике) / А.Г. Папцов. -М., 1998. С.
- 2.20 Папцов, А.Г. Государственное регулирование экономики за рубежом: аграрный аспект / А.Г. Папцов. М.: МиД, 2006. - С. 52-66, 75-76,148, 259-274.

- 2.21 Папцов, А.Г. Развитие сельского хозяйства Китая в условиях вступления страны в ВТО. Обзорн. информ. / А.Г. Папцов, О.В. Каменецкая. Центр информации и технико-экономических исследований АПК. - М., 2006. - 53 с.
- 2.22 Папцов, А.Г. Формы экономического регулирования сельского хозяйства за рубежом. Обзорная информ. / А.Г. Папцов. ВНИИТЭИагропром. - М., 2000. - 86 с.
- 2.23 Переговоры о присоединении РФ к ВТО могут быть завершены к лету 2008 // Vesti.ru. 11.03.2008.
- 2.24 Плугов А.Г. Опыт Китая в области обеспечения продовольственной безопасности и его возможное использование в России / А.Г. Плугов // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. — 2009.-№5.-С. 82-85.
- 2.25 Пожидаева, О. Роль иностранных инвестиций в экономике Китая / О. Пожидаева // Bankir.ru. 26.10.2006. - Режим доступа: <http://bankir.ru/analytics/refer/84/65382>.
- 2.26 Поликарпов, У. Китайский вариант / У. Поликарпов // Независимая Молдова. №1408. - 29.06.2001. - Режим доступа: <http://www.nm.md/daily/article/2001/06/29/0601.html>
- 2.27 Поселково-волостные предприятия Китая ускоряют развитие экономики, ориентированной на внешний рынок // Газета «Жэньминь жибао» он-лайн. — 15.11.2001. — Режим доступа: <http://russian.people.com.cn/200111/15/rus2001111552745.html>
- 2.28 Поселково-волостные предприятия // Китайский информационный Интернет-центр. 30.11.2007. - Режим доступа: <http://russian.china.org.cn/china/archive/China2007/2007110/content93225202.htm> /3

- 2.29 Потапов, М.А. Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии / М.А. Потапов. М.: Междунар. отношения, 2004. - С. 75-100.
- 2.30 Самуэльсон, П. Экономика / П. Самуэльсон. М.: МГП «Алгон», 1992. - С. 155-156.
- 2.31 Сарсембеков, Т.Т. Институционально-правовое обеспечение управления водными ресурсами в Китае / Т.Т. Сарсембеков, Ю.Н. Стеклов // Мелиорация и водное хозяйство. — 2005. — № 1. — С. 30-
- 2.32 Селищев, А.С. Китайская экономика в XXI веке /А.С. Селищев, Н.А. Селищев. СПб.: Питер, 2004. - С. 75-137.
- 2.33 Сельское хозяйство-деревня-крестьянство / Китайский информационный Интернет-центр. — 22.08.2006. Режим доступа: <http://russian.china.org.cn/china/archive/wyd/txt/2006-08/22/content2254654.htm>
- 2.34 Сельское хозяйство Китая // Geosite. Все о географии. 07.12.2004. - Режим доступа: <http://www.geosite.com.ru/pageid-896-l.html>
- 2.35 Сельское хозяйство Китая после вступления страны в ВТО // Китайский информационный Интернет-центр. — 25.01.2007. — Режим доступа: <http://russian.china.org.cn/business/txt/2007-01/25/content7713398.htm>
- 2.36 Синьуй, Т. Китайские крестьяне полностью освобождены от уплаты сельскохозяйственного налога // Kitairu.net. Режим доступа: <http://www.kitairu.net/rus/aboutchina/magazine/archive/2006/2/80>
- 2.37 Сколько зерна собирают в Китае? // China Radio International (Международное радио Китая). 03.11.2007. - Режим доступа: <http://russian.cri.en/289/2007/11/03/1@202263.htm>
- 2.38 Соколова, Ж.Е. Роль многопрофильной несельскохозяйственной деятельности в социально-экономическом развитии сельской

- местности современного Китая: Обзорн. информ. / Ж.Е. Соколова. - ВНИИТЭИагропром. М., 2001. - С. 11-29.
- 2.39 Смит, А. Исследование о природе и причинах богатства народов Электрон, текстовые данные. / А. Смит; Библиотека экономической и деловой литературы. -Режим доступа: <http://orel.rsl.ru/nettext/economic/smit/smitsod.htm>
- 2.40 Стратегия превращения Китая в супериндустриальное государство (1996-2050) / Ин-т Дальнего Востока РАН. Памятники исторической мысли. -М., 2002.-С. 45-67.
- 2.41 Супян, В. Роль государства в экономике: американский опыт / В Супян // Проблемы теории и практики управления. №4. - 2002. - Режим доступа: <http://rusref.nm.ru/indexpub87.htm>
- 2.42 Тарасов, А.А. Китайцы в Забайкалье / А.А. Тарасов // Проблемы Дальнего Востока. 2003. - №5. - С. 62-77.
- 2.43 Тарасов, В.И. Нетарифные меры защиты агропродовольственного рынка / В.И. Тарасов, В.Г. Свинухов, С.М. Сухов; Под ред. В.И. Добросоцкого. -Международный центр научной и технической информации, 2005. С. 17, 46.
- 2.44 Трейси, М. Сельское хозяйство и продовольствие в экономике развитых стран: Введение в теорию, практику и политику / М. Трейси. Пер. с англ. -СПб.: Экономическая школа, 1995. -431 с.
- 2.45 Участники ВТО // Россия и ВТО. — Режим доступа: <http://www.wto.ru/chto.asp?f=memb&t=7>
- 2.46 Цзиньвэнь, Л. Роль государственного регулирования в реформировании и развитии экономики Китая / Л. Цзиньвэнь // Вестн. Моск. ун-та. Сер.6. Экономика. 1997. - №5. - С.73-89.
- 2.47 Цзиньвэнь, Л. 21 шицзи дэ Чжунго цзинцзи фажан чжанлуэ (Экономическая стратегия Китая в XXI в.) / Ли Цзиньвэнь, Чжун Чанбяо, Гэ Синцюань. Пекин, 2002. - С. 154.

2.48 Цзинцзи жибао. 07.01.2000.

2.49 Шен Л.Ц. Экономические реформы в Китае / Ли Цзи Шеен, О.В. Казаринова. Академия народного хозяйства при Правительстве РФ. Изд-во «Дело». -М., 2002. - С. 13,

3.Jurnal va maqolalar

3.1 Ovchinnikov V. Proekt «Nadezhda». V Kitae bor'ba s nishhetoj stala generatorom rosta. Rossijskaja ga-eta, 2004,3418. URL: <http://www.rg.ru/2004/03/02/kitai.html> (13.01.2014).

3.2 OON opublikovala indeks chelovecheskogo razvitija v stranah mira 2013 goda. Jekspertno-analiticheskij portal «Centr gumanitarnyh tehnologij». URL: <http://gtmarket.ru/news/2013/03/14/5622> (13.01.2014).

3.3 Prezident VB: neobhodimo uvelichit' usilija dlja realizacii celej po likvidacii bednosti. Informaciomoe agentstvo «Sin'hua». 20.04.2013. URL: <http://russian.cri.cn/841/2013/04/20/ls465480.htm> (13.01.2014).

3.4 Reformy i perspektivy jekonomiki Kitaja / Fond jekonomicheskix issledovanij «Centr razvitija», Institut NIU VShJe. Moscow, 2000. URL: http://www.dcenter.ru/pdf/2007/owe_chin_2000.pdf (13.01.2014).

3.5 Statisticheskoe kommjunike Kitajskoj Narodnoj Respubliki Kitaja na 2012 god. Nacional'noe bjuro statistiki Kitaja. 2013. URL: <http://www.stats.gov.cn> (13.01.2014).

3.6. Chzhou Sin'chjen. Jekonomicheskaja reforma v Kitae: dostizhenija i zadachi. Problemy teorii i praktiki upravlenija, 1997,2.

4.Internet resurslar

4.1 <http://www.myshared.ru>

4.2 <http://www.easttime.ru/analitic/3/8/699.html>

4.3 <http://uz.chineseembassy.org/rus/dtxw/t197482.htm>

4.4 <http://www.chinastar.ru/rus/2/2/3/>

- 4.5 <http://tj.china-embassy.org/rus/xwdt/t289321.htm>
- 4.6 http://www.tajikembassychina.com/Ru_06_02.htm
- 4.7 http://www.ng.ru/cis/2007-01-15/6_expanison.html